2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 227 (1826), 2026-yil 3-noyabr, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

KENGAYAYOTGAN MEHNAT BOZORI, ANIQ MANZILLI ISH KAFOLATI VA TIZIMLASHGAN JARAYON

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi “Intil” xalqaro til va kasbga o‘qitish markazi faoliyati bilan tanishib, mehnat migratsiyasi sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.





Xorijga borib ishlash deganda xayolimizda shakllanadigan ilk tasavvur, albatta, yaxshi daromad va yaxshi hayot kechirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Migratsiya jarayonining mazmuni ham shu, aslida. Chunki odamzod har doim orzu-havas bilan yashaydi. Oldiga katta maqsadlarni qo‘yadi. Niyatlari yo‘lida intiladi, harakat qiladi, izlanadi.

Bugun dunyoda 168 million kishi xorijiy davlatlarda ishlayotgani jarayonning ana shu o‘zgarmas qoidasi amalda ekanini ko‘rsatadi.

“Musofirning noni qattiq”, deyishadi. Shu ma’noda, yuqori maosh deb o‘zini o‘tga ham, cho‘qqa ham uraverish yaramaydi. Chunki bugun zamon boshqacha, mamlakatlar rivojlanmoqda, mehnat talablari o‘zgarmoqda, mehnat bozoriga yangi kasblar kirib kelmoqda. Shunday ekan, ishchi ham bunga tayyor bo‘lishi va shunga mos maoshni talab qila olishi kerak.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda qilinayotgan ishlarga chuqurroq nazar tashlasak, ko‘rilayotgan choralar mazmun-mohiyatini teranroq anglay boshlaymiz. Bu ishlar samarasi, avvalo, yurtdoshlarimizni mehnat qilish uchun chet elga tartibli jo‘natish jarayoni tizimlashtirilib, mehnat bozori kengayayotganida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni bugun O‘zbekiston fuqarolari hammamiz biladigan bir-ikki mamlakatga emas, balki boshqa davlatlarga ishi tayin bo‘lgachgina yuborilmoqda. Bu, tabiiyki, ilgarigiday sarsongarchiliklarning oldini oladi. Hamyurtlarimizning huquq va manfaatlarini kafolatlaydi.

Prezidentimiz tanishgan “Intil” xalqaro til va kasbga o‘qitish markazi ayni shu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Ya’ni markazning asosiy vazifasi xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimizni til, kasb va amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlab, xalqaro mehnat bozorida malakali mutaxassis sifatida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishdir. Bu yerda tayyorgarlik xorijiy ish beruvchilarning aniq ehtiyojlari va ish joyida qo‘yiladigan talablar asosida tashkil etilgan.

Uchtepa tumanida qariyb 3,5 gektar maydonda joylashgan majmua fuqaroning dastlabki murojaatidan tortib, hujjatlarini rasmiylashtirish, til va kasb o‘rganish, malakasini tasdiqlash hamda xorijga ishga jo‘nab ketishigacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oladi.

Davlatimiz rahbari markaz faoliyati bilan tanishar ekan, jahon mehnat bozori o‘zgarayotganiga e’tibor qaratdi. Mamlakatimizda ham chet elda ishlash istagidagi fuqarolar bor, boshqa davlatlarda esa ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori. Ushbu ikki imkoniyatni o‘zaro bog‘lash soha mutasaddilari va hududlar rahbarlari oldida turgan asosiy vazifa ekani qayd etildi.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda mamlakatimizda tartibli mehnat migratsiyasiga munosabat tubdan o‘zgardi. Ilgari bu yo‘nalishda 3 ta davlat bilan ishlangan bo‘lsa, hozir ularning soni 27 taga yetdi. Hamkorlik qilayotgan yirik xorijlik ish beruvchilar qariyb 400 taga ko‘paydi.

“Intilganga tole yor”, deyishadi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi tomonidan tashkil etilgan markaz nomida ushbu maqolda keltirilgan ma’no mujassam. Ya’ni bu yerda hozir 6 ta xalqaro loyiha doirasida kasbga, hunarga, bilimga intilgan 240 tinglovchi tahsil olmoqda. Bu yerda tayyorgarlik xorijiy ish beruvchilarning aniq ehtiyojlari va ish joyida qo‘yiladigan talablar asosida tashkil etilgan.

Front-ofisda maslahat, hujjat va viza masalalari bo‘yicha ko‘mak ko‘rsatiladi. Shuningdek, bank xizmatlari, aviachipta kassalari, viza xizmatlari vakolatxonalari va call-markaz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Majmuada 600 o‘rinli o‘quv xonalari, 180 o‘rinli amaliy mashg‘ulot xonalari, 120 o‘rinli imtihon markazi va 400 o‘rinli yotoqxona mavjud. O‘quv-amaliy mashg‘ulotlar uchun jihozlar Germaniya, Xitoy va Rossiyadan olib kelingan.

Markazda nemis, ingliz, yapon, koreys, chex, polyak, italyan va slovak tillari bo‘yicha tayyorgarlik yo‘lga qo‘yilgan. Til o‘qitish dasturlari 6 oydan 10 oygacha davom etadi.

Xorijiy ish beruvchilar ehtiyojlariga qarab, ta’lim mazmuni yangilanib, to‘ldirib boriladi.

Kasbiy tayyorgarlik 12 ta ta’lim dasturini qamrab oladi. Ular orasida tibbiyot, payvandchilik, elektr va santexnika ishlari, ombor logistikasi, qurilish, mehmonxona-restoran xizmati hamda oshpazlik yo‘nalishlari bor.

Mashg‘ulotlar real ish jarayonlariga yaqinlashtirilgan sharoitlarda o‘tkaziladi, tinglovchilar nazariy bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rganadi. Markazda Yaponiyaning “Proud Partners” va “Onodera User Run”, Germaniyaning “Deutsche Bahn” va “RecruitMed GmbH”, Chexiyaning “PentaHospital” hamda Italiyaning “Perugia University” hamkorligidagi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Majmuaga 40 nafar mahalliy o‘qituvchi va xodim hamda 6 nafar xorijiy til o‘qituvchisi jalb qilingan. Kelgusida xorijiy ish beruvchilar ehtiyoji asosida nomzodlarni saralash, til va kasbga o‘qitish, xorijdagi hayotga tayyorlash hamda ishga joylashtirishga ko‘maklashish tajribasini respublikaning boshqa hududlarida ham yagona tizim sifatida joriy etish rejalashtirilgan.

Shu o‘rinda bir mulohaza. Ochig‘i, aksariyat odamlar chetga chiqib ishlash deb qurilish, qishloq xo‘jaligi yoki boshqa oddiy yumushlarni tushunardi va chetga ketganlar ham ayni shu sohalarda oddiy ishchi bo‘lib mehnat qilardi. Ya’ni niyatiga yarasha natijaga erishardi. Bugun esa holat boshqacha. Vaziyat talabi bo‘lakcha. Migrantlik katta tayyorgarlik, munosib ish va mehnatga yarasha haq degani. Mutaxassislar nuqtai nazaridan aytganda, migratsiya — eksport. Ishchi kuchi eksporti. Bu butun dunyoda bor jarayon. Migrantlar mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi kuch. Bilimli, haq-huquqini tanigan, mutaxassis bo‘lgan migrantning foydasi esa yanada ko‘p bo‘ladi. Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishdagi ishlar ayni shunga qaratilgani bilan diqqatga sazovor. Ya’ni buning zamirida islohotlarning bosh omili — “Inson qadri uchun” tamoyili turibdi.

Buni Prezidentimiz mehnat migrasiyasi sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda alohida ta’kidladi.

Davomi 2-betda

MARKAZIY OSIYO “KATTA O‘YIN” OBYEKTI EMAS

Sodiq Safoyev Samarqand uchrashuvlari, O‘zbekiston — AQSH munosabatlari va mintaqaning yangi mavqei haqida

Shu yil oktyabr oyida jahon hamjamiyatining e’tibori yana Samarqandga qaratildi. AQSH Davlat kotibi Marko Rubioning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan muzokaralar, Markaziy Osiyo va AQSH tashqi ishlar vazirlarining C5+1 formatidagi uchrashuvi hamda Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiyalar kengashining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu siyosiy va iqtisodiy muloqotlarning ahamiyati, erishilgan kelishuvlar hamda Markaziy Osiyoning jahon siyosatidagi yangi o‘rni haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari, taniqli diplomat va siyosatchi Sodiq SAFOYEV bilan suhbatlashdik.

— Sodiq Solihovich, Marko Rubioning O‘zbekistonga tarixiy tashrifi xalqaro hamjamiyat va ommaviy axborot vositalarida juda katta qiziqish uyg‘otdi. Siz ushbu tashrif ahamiyatini nimalarda ko‘ryapsiz?

— Darhaqiqat, Samarqandda bo‘lib o‘tgan muzokaralar, uchrashuvlar va anjumanlarni hech ikkilanmasdan tarixiy voqea deyish mumkin. Marko Rubioga O‘zbekistonga jo‘nab ketishi oldidan “Janob Davlat kotibi, butun dunyo inqirozlar va nizolar girdobida turgan bir paytda nega aynan O‘zbekistonga, Samarqandga ketyapsiz?” deya savol berishdi. Uning javobi shunday bo‘ldi: “To‘g‘ri, hozir butun dunyoda muammolar ko‘p, ammo biz kelajakni ham o‘ylashimiz kerak. O‘zbekiston bugun jadal rivojlanayotgan, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirayotgan davlat. Bunday mamlakat bilan hamkorlik qilish bugungi qiyinchilik va ziddiyatlarga yechim topishda ham yordam beradi”.

Ushbu javobda yangi O‘zbekistonga, mamlakat rahbarining xalqaro maydonda egallagan mavqeiga nisbatan hurmat va ishonch mujassam desam, yanglishmagan bo‘laman.

Samarqanddagi tadbirlar uch yo‘nalishda o‘tdi. Birinchisi — Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda AQSH Davlat kotibi Marko Rubio o‘rtasidagi ikki tomonlama muloqot. Ikkinchisi — Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiyalar kengashining yig‘ilishi. Davlat kotibiga AQSHning 200 ta yirik kompaniyasi vakillari hamrohlik qildi. Demak, kun tartibida siyosiy muloqot bilan birga iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalarga ham juda katta o‘rin berildi. Uchinchisi — Markaziy Osiyo va AQSH tashqi ishlar vazirlarining C5+1 formatidagi uchrashuvi.

Shubhasiz, Samarqandda erishilgan kelishuvlar va muhokama etilgan masalalar Prezidentimiz tashqi siyosatining, yangi O‘zbekiston diplomatiyasining eng salmoqli natijalaridan biri bo‘ldi.

Davomi 3-betda

XITOYDA O‘ZBEKISTON PREZIDENTI KITOBI NASHR ETILDI

Pekinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning xitoy tilida chop etilgan “O‘zbekiston barqaror taraqqiyot va farovonlik yo‘lida” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda Xitoy vazirlik va idoralari, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-akademik, ekspert va ishbilarmon doiralari, yetakchi ommaviy axborot vositalari hamda xorijiy diplomatik korpus rahbarlari ishtirok etdi.

Xitoyning nufuzli “Jenmin” nashriyotida chop etilgan ushbu kitob 8 bobdan iborat bo‘lib, “O‘zbekiston keng ko‘lamli islohotlar jarayonida”, “O‘zbekiston va BMT”, “O‘zbekiston va SHHT”, “Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi” va boshqa mavzularni qamrab olgan.

Davomi 2-betda

MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SAVATI: BIR-BIRINI TO‘LDIRADIGAN YANGI IMKONIYATLAR

Oila dasturxonidagi non, meva, sut va baliqning har biri ortida urug‘dan bozorgacha davom etadigan mehnat va bilim zanjiri bor. Markaziy Osiyoni yaxlit oziq-ovqat savati sifatida ko‘rish taklifi ana shu zanjirlarni bir-biriga bog‘lashdan boshlanadi. 2026-yilgi FAO Jahon oziq-ovqat forumida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbus mintaqaning qishloq xo‘jaligi, ilm-fan, oziqlanish, investitsiya va logistika imkoniyatlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirishga qaratildi.

Jahon oziq-ovqat forumi yoshlar tashabbuslari, ilm-fan, innovatsiya va investitsiya bir maydonda uchrashadigan xalqaro platformadir. Turli mamlakatlar bu yerda global oziq-ovqat xavfsizligi uchun o‘z yechimlarini taqdim etadi. Biz Markaziy Osiyoning imkoniyatlarini umumiy oziq-ovqat savati, quruqlik orqali bog‘langan mintaqaviy tizim va uni amalga oshirishga xizmat qiladigan 7D modeli orqali bir butun holda ko‘rsatishni taklif qildik.

Taklifning markazida oddiy, ammo strategik g‘oya bor. Markaziy Osiyo davlatlarining dengizga chiqish imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, ular bir-biri bilan quruqlik orqali bog‘langan.

Davomi 4-betda

Davlatimiz rahbari xorijdagi mehnat bozorlariga chiqishda elchilar, hokimlar va texnikumlar hamjihat ishlashi zarurligini ta’kidladi. Germaniya, Turkiya, Slovakiya va Qatarda hamkorlar topib, ularni texnikumlar bilan bog‘lash va yurtdoshlarimizni ishga joylashtirish bo‘yicha ijobiy misollar bor. Lekin qolgan mamlakatlardagi elchilarimiz bu masalada sust ekani ko‘rsatib o‘tildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 3-noyabr, 227-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

KENGAYAYOTGAN MEHNAT BOZORI, ANIQ MANZILLI ISH KAFOLATI VA TIZIMLASHGAN JARAYON

Boshlanishi 1-betda

Chet elda ishlayotgan yurtdoshlarimiz soni o‘n yilda ikki baravar kamaygan bo‘lsa-da, ularning oilalariga yuborayotgan mablag‘lari to‘rt karra oshdi. Bu, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, xalqaro mehnat bozorida o‘zbek mutaxassislariga munosabat o‘zgarib, odamlarimiz chetga oddiy ishchi emas, malakali kadr sifatida borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida farq katta. Masalan, xorijda ishlayotgan bir kishiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik pul o‘tkazmasi Farg‘onada 1850 dollar bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston va Toshkent viloyatida 400 dollarga, Sirdaryoda 500 dollarga, Jizzax va Navoiyda 600 dollarga, Surxondaryo va Xorazmda 700 dollarga ham yetmayapti. Shu bois, hokimlar, elchilar va texnikum rahbarlari odamlarni yuqori daromadli ishlarga tayyorlash bo‘yicha o‘z ishini qayta ko‘rib chiqishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

— Aslida, inson qayerda ishlashi, qancha maosh olishi, huquqini kim himoya qilishini bilib borishi kerak, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari xorijdagi mehnat bozorlariga chiqishda elchilar, hokimlar va texnikumlar hamjihat ishlashi zarurligini ta’kidladi. Germaniya, Turkiya, Slovakiya va Qatarda hamkorlar topib, ularni texnikumlar bilan bog‘lash va yurtdoshlarimizni ishga joylashtirish bo‘yicha ijobiy misollar bor. Lekin qolgan mamlakatlardagi elchilarimiz bu masalada sust ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Yevropa Ittifoqi ilk bor Markaziy Osiyodan mutaxassislarni jalb etish masalasini migratsiya strategiyasiga kiritdi. Prezidentimiz bu imkoniyatlardan foydalanishda elchi, hokim va texnikumlarning o‘rni sezilmayotganini qayd etdi. Masalan, Buyuk Britaniyada 33 ming ishchi kuchiga ehtiyoj bor. Biroq hozirgacha fuqarolar ushbu mamlakatga, asosan, qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlarga yuborilmoqda. Tibbiyot, logistika va sanoat sohalarida ish beruvchilar bilan aniq kelishuvlar yo‘qligi, “Yoshlar mobilligi” dasturida ishtirok etish masalasi hal etilmagani ko‘rsatib o‘tildi. Italiya bilan ham mehnat migratsiyasi imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha kelishuv bor, lekin bu imkoniyat ishga solinmayapti.

Til bilish yuqori daromad kafolatlaridan biri. Bu, ayniqsa, xorijda mehnat qilayotganlar uchun hayotiy zarurat. Mamlakatimizda ingliz tilini puxta o‘rganib, sertifikat olgan 200 mingga yaqin yosh bor. Shu bilan birga, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Shvetsiya va Daniyada ularning mehnat qilishi uchun yo‘l ochish bo‘yicha ishlar yetarli emas. Prezidentimiz yig‘ilishda ushbu jihatga alohida e’tibor qaratdi. Chunki Germaniyadan joriy yilning o‘zida 45 ming mutaxassisga buyurtma kelib tushgan, ammo atigi 2 ming kishi ishga joylashgan. Asosiy sabab — nemis tilini biladigan kadrlar yetishmasligi. Shu bois, kasbga o‘qitish bilan til tayyorgarligini birga olib borish zarur.

Germaniyaning “Globogate” kompaniyasi bilan hamkorlikda yurtimizdagi 20 ta tibbiyot texnikumida yiliga 1,5 ming hamshira tayyorlanmoqda. Qarshidagi ilg‘or kasbiy mahorat texnikumida germaniyalik o‘qituvchilar yoshlarga nemis tili va kasb o‘rgatmoqda.

Andijonda tadbirkor bo‘sh turgan texnikumni ta’mirlab, Germaniyadan o‘qituvchi jalb qilgan holda yiliga 1,5 ming mutaxassis tayyorlayapti. Prezidentimiz bunday tajribani boshqa hududlarda ham kengaytirish, har bir viloyatdagi 2-3 ta texnikumda kasb bilan birga nemis tilini o‘rgatish zarurligini ta’kidladi.

Germaniyaning “Telk” kompaniyasi “Intil” xalqaro o‘quv markazida 100 nafar nemis tili o‘qituvchisini tayyorlashni boshlagan. Kelasi yil boshidan ular hududlardagi texnikumlarga jalb qilinadi. Viloyat hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari ushbu o‘quv markazi tajribasini o‘rganib, kelasi yili har bir hududda yagona migratsiya markazini ochadi. Prezidentimiz topshirig‘i shunday bo‘ldi. Buning uchun har bir viloyatga 8 milliard so‘mdan ajratiladi. Natijada kelasi yil 10 ming kishi kasb va nemis tiliga o‘rgatilib, Germaniyada ishga joylashtiriladi.

Kelgusi yil maktab va texnikumlarda nemis tilidan dars berish uchun 500 nafar til egasi jalb qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida nemis tili o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasini kelasi o‘quv yilidan ikki karra oshirish topshirildi.

Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyaning yirik kompaniyalari o‘zlariga zarur mutaxassislarni O‘zbekiston texnikumlarida tayyorlashga qiziqish bildirmoqda. Ular o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarini jihozlashga sarmoya kiritishga ham tayyor. Prezidentimiz bir oyda 20 ta texnikumni tanlab, kelgusi yildan ularni xorijlik ish beruvchilar talabi asosida kadr tayyorlashga moslashtirishni topshirdi.

Shulardan kelib chiqish aytish kerakki, bugun mamlakatimizda migratsiya masalasidagi ishlar yangi bosqichga chiqmoqda. Belgilangan vazifalar, topshiriqlar fuqarolar manfaatiga mos bo‘lmoqda. Ya’ni barcha sa’y-harakatlar chet elda ishlash istagidagilar uchun qulaylik yaratishga qaratilyapti. Jumladan, har bir viloyatdagi 2-3 tadan texnikum yirik tadbirkorlar boshqaruviga berilishi, ular orqali yiliga ish joyida darhol faoliyat boshlay oladigan kamida 30 ming mutaxassis tayyorlash rejalashtirilayotgani bu ishlarga unum beradi. Texnikumlar 15 yilga boshqaruvga, bitiruvchilarga davlat namunasidagi malaka sertifikati berilishi esa ularni oddiy ishchilikdan malakali mutaxassisga olib chiqadi.

Tadbirkorlarning kadr tayyorlash va uskuna xarid qilishga sarflagan mablag‘larini to‘langan soliqlardan chegirish, chet elda yaxshi ishga joylashgan har bir bitiruvchi uchun grant ajratish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Texnikumlar xorijlik ish beruvchilar bilan bog‘lanadi.

— Men ishonaman: chempion tadbirkorlarimiz chet elda “o‘zbek mutaxassislari brendi”ni yaratishda ham davlatga ko‘makchi bo‘ladi, — dedi Prezidentimiz.

Xususiy bandlik agentliklariga litsenziya berish tartibi soddalashtirilgach, ikki yilda ularning soni uch baravar ko‘paydi. Ushbu agentliklar orqali xorijda ishga joylashganlar esa besh karra ortdi. Prezidentimiz sohada xatolar, korrupsiya va fuqarolarni aldash holatlari ham bo‘lganini aytdi. Muammolarni bartaraf etish uchun alohida qonun qabul qilinib, huquqiy asos yaratildi.

Kelasi yildan fuqarolarni chet elga ishga yuborish vazifasi xususiy sektordagi eng ishonchli bandlik agentliklariga to‘liq o‘tkaziladi. Yuqori daromadli ishga joylashtirilgan har bir kishi uchun agentlikka 1,5 million so‘mdan rag‘bat puli to‘lanadi. Yoshlarni kasb va tilga tayyorlash uchun texnikum binolarining bir qismi bepul ijaraga beriladi. Chet eldan jalb qilingan o‘qituvchi va ekspertlarga ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilanadi, o‘quv jarayoni uchun zarur uskuna va jihozlar bojxona bojidan ozod qilinadi.

Xususiy bandlik agentliklari to‘liq shaffof tizimda ishlaydi, ularning reytingi yuritiladi. Fuqaroning aniq ishga joylashishi, huquqlari ta’minlanishi, yuqori daromad olishi va kafolatli ijtimoiy ta’minotga ega bo‘lishi asosiy mezonga aylanadi.

Prezidentimiz bir oyda agentliklar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qaror loyihasini kiritish, ushbu faoliyatni ijtimoiy xizmat sifatida ko‘rib, soliqqa tortishni shunga mos ravishda soddalashtirishga topshiriq berdi. Xalqaro mehnat bozorida yirik rekruting kompaniyalari ish beruvchilar bilan malakali mutaxassislar o‘rtasida muhim bog‘lovchiga aylangan. Bunday kompaniyalar O‘zbekistonda ham mutaxassislarni o‘zlari tayyorlab, to‘g‘ridan to‘g‘ri ishga joylashtirish uchun sharoit yaratishi zarur. Kelasi yil mamlakatimizda ikkita yirik xalqaro rekruting kompaniyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilandi.

Joriy yilda 34 ta davlatda 287 ming kishini ishga joylashtirish imkoniyati bor. Ammo bu imkoniyatlar haqida odamlar yetarlicha xabardor emas, Migratsiya agentligi bilan “mahalla yettiligi” o‘rtasidagi aloqa ham samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Chindan ham keyingi paytlarda migratsiya yo‘nalishidagi ishlar yana bir jihati, ya’ni aniq maqsad va manzilli bo‘layotgani bilan alohida e’tiborni tortadi. Jumladan, yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan aytilayotgan fikr va tashabbuslar, topshiriqlar faqatgina odamlarni chetga ishga tayyorlash haqida bo‘lmayapti, balki ularni xorijdagi aniq ishga joylab qo‘yishga qaratilyapti. Ya’ni davlat o‘z fuqarosini qayerda bo‘lsa ham e’tibordan chetda qoldirmayapti. Bu jihatni Prezidentimiz alohida ta’kidlab, “... Chet elda ishlayotgan har bir yurtdoshimiz — oilasining rizqi, farzandlari kelajagi uchun tinimsiz mehnat qilayotgan haqiqiy mard insonlar. Ular ham bizning fuqarolarimiz, bizning farzandlarimiz”, dedi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari migratsiyada raqam emas, sifat kerakligini qayd etdi. Xorijdagi ish o‘rinlari haqidagi ma’lumot har bir mahallagacha yetib borishi kerak. Har bir buyurtma bo‘yicha qaysi mamlakatda qanday mutaxassisga talab borligi, qayerda o‘qish va qaysi til kerakligini bilish zarur.

“Mahalla yettiligi” chet elda ishlash istagidagi fuqarolarga bu imkoniyatlarni tushuntirib, nomzodlarni “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Hokimlar va mas’ul tashkilotlar ularni kasb hamda tilga maqsadli tayyorlash, keyin esa ishga joylashtirish uchun javob beradi.

Viloyat hokimlari har oyda bir marta, tuman hokimlari ikki marta migratsiyaga mas’ullar va “yettilik” ishtirokida ish natijalarini ko‘rib chiqadi. Har bir nomzodning tayyorgarligi va ishga joylashishi bo‘yicha talabchan nazorat o‘rnatiladi.

Xorijda yuqori daromadli ish o‘rinlarini ochish uchun ish beruvchilar bilan kelishuvning o‘zi kifoya qilmaydi. Rivojlangan davlatlar bilan faol iqtisodiy diplomatiya olib borib, kvotalar, ishchi vizalar va malakani tan olish masalalarini izchil hal qilish kerak.

Xorijda muammoga duch kelgan vatandoshlarimiz endi yordam so‘rab, “Onlayn mahalla” platformasida xabar qoldira oladi. Zarur hollarda elchining o‘zi fuqaro oldiga borib, uning huquqini himoya qiladi va muammosiga yechim topish bilan shug‘ullanadi.

Hokimlar oldiga xorijda ishlayotganlarning oilasi va ota-onasi farovon hayot kechirishi, farzandlari yaxshi ta’lim olishi uchun sharoit yaratish vazifasi qo‘yildi. Har bir vatandoshimiz qayerda bo‘lmasin, ortida uni qo‘llab-quvvatlaydigan Vatani borligini his qilib yashashi kerakligi ta’kidlandi.

30-noyabrdan 5-dekabrgacha poytaxtimizda yana bir yirik anjuman — “Yangi O‘zbekiston — global imkoniyatlar chorrahasi” xalqaro forumi tashkil etiladi. Prezidentimiz ushbu tadbir tadbirkorlar uchun yangi eksport yo‘nalishlarini ochish, chet elda ishlash istagidagi fuqarolarni Yevropa va ko‘rfaz mamlakatlaridagi ish beruvchilar bilan bog‘lashga xizmat qilishi zarurligini ta’kidladi. Negaki, forumga dunyoning 52 mamlakatidan vakillar keladi. Har bir elchi o‘zi ishlayotgan mamlakatdan yirik importyor va rekruting kompaniyalarning 50-100 vakilini jalb qilishi kerakligi qayd etildi. Forumda xorijlik hamkorlar bilan 2027-yil uchun eksport, turizm va migratsiya yo‘nalishlarida aniq kelishuvlarga erishish vazifasi qo‘yildi.

Mamlakatimizda migratsiya sohasidagi ishlar faqat ish o‘rni topish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Buni Prezidentimiz ham qayd etib, elchilar hokimlar bilan birga fuqaroning ishga joylashishi va yangi muhitga ko‘nikishigacha bo‘lgan jarayon uchun mas’ul bo‘lishini ta’kidladi.

Yil boshidan buyon 1 million 116 ming kishi migratsiyadan qaytgan. Ular sanoat, logistika, qurilish va boshqa sohalarda o‘ziga xos tajribaga ega. Ya’ni tayyor mutaxassis. Xorijda yirik sanoat korxonalarida ishlab, zamonaviy texnologiya va mehnat madaniyatini o‘zlashtirgan bu kabi mutaxassislarni mamlakatimiz korxonalariga jalb etish mumkin. Bu ular uchun katta imkoniyat. Shu maqsadda chet eldan qaytgan fuqarolarning ishlagan joyi, kasbi va staji aks etadigan platforma yaratilib, hokimlar hamda tarmoq rahbarlari foydalanadigan tizimga ulanadi. Yil yakunigacha qaytgan 250 ming kishiga mos ish topish, tadbirkorlik qilishni istaganlarga esa yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, sharoit yaratish mutasaddilarning navbatdagi vazifasi bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda migrantlar kelajagiga daxldor yana bir masalaga e’tibor qaratdi. Gap shundaki, bugun yurtdoshlarimiz 40 dan ziyod davlatda qonuniy ishlab, soliqlar bilan bir qatorda pensiya badallarini ham to‘layapti.

— Ularning xorijdagi ish staji Vatanga qaytganidan keyin hisobga o‘tishi, ayniqsa, pensiya tayinlashda bu, albatta, inobatga olinishi zarur, — dedi Prezidentimiz.

Demak, endi O‘zbekiston fuqarosining chetda ishlagan yillari ham pensiya yoshiga yetganda hisobga olinadi. Bu maqsadda amaliy ishlarga kirishilgani diqqatga sazovor. Ya’ni joriy yil Qirg‘iziston, Ozarbayjon va Turkiya bilan ish staji va pensiya huquqini tan olish bo‘yicha ikki tomonlama bitimlar imzolangan. Shu bilan birga, fuqarolarimiz ko‘p ishlayotgan Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Boltiqbo‘yi va Bolqon davlatlari bilan ham shunday kelishuvlarga erishish kerak.

Davlatimiz rahbarining navbatdagi topshirig‘i shu bo‘yicha bo‘ldi: mas’ullarga xorijlik hamkasblari bilan muzokaralar o‘tkazib, yil yakunigacha erishilgan aniq natijalar yuzasidan axborot berish topshirildi.

Bugun O‘zbekistonga kelayotgan xorijiy ishchilar ham kam emas. Yig‘ilishda bu yo‘nalishdagi ishlar ham ko‘rib chiqildi. O‘zbekistonda uzoq muddat yashayotgan chet elliklar soni 250 mingga yaqinlashgan. Ulardan 36 ming nafari ishlashga ruxsatnoma olgan, 24 ming nafari talaba. Qolganlarning bandligi va daromad manbalari haqida aniq ma’lumot bo‘lishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, yangi ish o‘rinlariga birinchi navbatda o‘zimizning fuqarolarni joylashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Yig‘ilish davomida sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan muloqot qilindi, hududlar rahbarlarining axboroti tinglandi.

Migrantlar qabul qiladigan mamlakat uchun yetishmayotgan ishchi kuchi o‘rnini to‘ldirish orqali uning iqtisodiyotini rivojlantirishda qo‘l kelsa, jo‘natadigan davlat uchun oilalarning kundalik ehtiyojlarini qoplash, kambag‘allikni kamaytirish va ichki bozorda xarid qobiliyatini oshirishga munosib hissa qo‘shadi. Qolaversa, odamlarda tajriba, malaka va tadbirkorlik imkoniyatini yuzaga chiqarishga turtki beradi.

Davlatimiz rahbarining “Intil” xalqaro til va kasbga o‘qitish markazi faoliyati bilan tanishuvi va migratsiya borasidagi yig‘ilishda ko‘tarilgan masalalar shu kabi maqsadlarga qaratilgan ishlarni takomillashtirishga xizmat qiladi, albatta.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

XITOYDA O‘ZBEKISTON PREZIDENTI KITOBI NASHR ETILDI





Boshlanishi 1-betda

Kitobda O‘zbekiston Prezidentining yangi O‘zbekistonni barpo etish doirasida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ichki va tashqi siyosat masalalariga bag‘ishlangan nutq va ma’ruzalari, shuningdek, davlatimiz rahbarining xorijiy ommaviy axborot vositalarida chop etilgan intervyu va maqolalari jamlangan.

Taqdimot davomida kitob O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida mamlakatda kechayotgan keng ko‘lamli tarixiy islohotlar, yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti, ichki va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari haqida Xitoy va xalqaro jamoatchilikni keng xabardor etishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi alohida ta’kidlandi.

Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin Xitoyda Prezident Shavkat Mirziyoyev kitobining nashr etilishini har tomonlama strategik sheriklik o‘rnatilganining o‘n yilligi nishonlanayotgan yildagi muhim voqea sifatida baholadi.

Lyu Xaysinning fikricha, 2027-yil 2-yanvar kuni nishonlanadigan diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 35 yilligi arafasida Pekin O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot va keng ko‘lamli modernizatsiya yo‘lini bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Xitoy tomoni yangi mamlakat qurilishini siyosiy ishonchni mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar ochadigan muhim jarayon sifatida ko‘radi.

Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Targ‘ibot bo‘limi mudiri o‘rinbosari Xon Dayon ushbu kitobning chop etilishini O‘zbekiston — Xitoy gumanitar aloqalari rivojidagi yirik voqea deb atadi. Uning ta’kidlashicha, ikki davlat yetakchilari rahbarligida o‘zaro munosabatlar izchil ravishda yanada yuqori darajaga ko‘tarilib bormoqda, madaniy va intellektual muloqot esa bu jarayonga alohida teranlik bag‘ishlamoqda.

O‘zbekiston Prezidentining davlat boshqaruvi sohasidagi g‘oyalarining teranligi va ularni amaliyotga tatbiq etish natijadorligi alohida e’tiborga loyiq. Kitob milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tanlangan yo‘lning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish borasidagi qat’iy siyosiy irodani aks ettiradi. Xitoylik ekspertlar, jamoatchilik doiralari vakillari va keng kitobxonlar ommasi uchun ushbu kitob O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti haqida qimmatli bilim manbai hisoblanadi.

“Xitoyda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitobi nashr etilganidan juda xursandmiz. Unda yangi O‘zbekistondagi strategik islohotlarning mazmun-mohiyati, mamlakatning zamonaviy rivojlanishi, ichki o‘zgarishlar va tashqi siyosat maqsadlari ochib berilgan. Xitoy auditoriyasi uchun mazkur nashr O‘zbekistonni modernizatsiya qilish jarayonini chuqur o‘rganishda muhim amaliy ahamiyatga ega”, dedi Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar akademiyasi prezidenti Fu Syaosyan.

SHHT Bosh kotibi o‘rinbosari Pyao Yanfanning qayd etishicha, davlat rahbarining kitobi yangi O‘zbekiston qiyofasini shakllantirayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to‘laqonli hamda har tomonlama anglash uchun muhim manba sanaladi.

U Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonning qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va aholi turmush darajasini oshirish borasida erishgan tarixiy yutuqlarini yuqori baholadi.

Shuningdek, Pyao Yanfan islohotlarning izchilligi mamlakatning xalqaro nufuzi va iqtisodiy jozibadorligi oshishiga xizmat qilayotgani, muvaffaqiyatlari jahon hamjamiyati e’tiborini tortayotganini ta’kidladi.

Uning fikricha, kitob Xitoy va “SHHT oilasi”ning boshqa mamlakatlarida keng aks sado beradi, O‘zbekistondagi o‘zgarishlarni tushunishni kengaytiradi va hamkorlikka qo‘shimcha sur’at bag‘ishlaydi. Unda bayon etilgan yondashuvlar SHHT doirasidagi hamkorlikning asosini tashkil etuvchi o‘zaro ishonch, teng huquqlilik, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va birgalikda rivojlanish tamoyillariga hamohangdir.

Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori o‘rinbosari Pan Dapenning e’tirof etishicha, Prezident Shavkat Mirziyoyevning kitobi yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy bosqichlarini izchil aks ettiradi hamda ichki va tashqi strategiyani uyg‘unlikda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Unda mamlakatdagi keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati, yangi O‘zbekiston zamonaviy milliy taraqqiyotining asosiy tamoyillari keng ochib berilgan.

“Dunyo” AA
Pekin shahri



BUXORO UNESCO IJODIY SHAHARLAR TARMOG‘I KONFERENSIYASIGA MEZBONLIK QILADI

Buxoro shahri 2027-yilda UNESCOning Ijodiy shaharlar tarmog‘i 19-yillik konferensiyasini qabul qiladi.

UNESCO O‘zbekistonning qadimiy shahrini mazkur muhim xalqaro tadbirni o‘tkazish joyi deb rasman e’lon qildi. Konferensiyani Buxoroda o‘tkazish tashabbusi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil oktabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilishida ilgari surilgan edi.

Ushbu qaror O‘zbekistonda madaniyat, kreativ sanoat va barqaror shaharsozlikni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlar xalqaro miqyosda e’tirof etilganining yaqqol namunasidir. Buxoro Markaziy Osiyo, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va Turkiy davlatlar tashkiloti makonida UNESCOning ushbu nufuzli konferensiyasiga mezbonlik qiladigan ilk shahar bo‘ladi.

Ijodiy sanoat yo‘nalishlarini rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash va undan zamonaviy sharoitda foydalanish, yoshlar hamda ijodiy kasb egalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, madaniyatning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi hissasini oshirish masalalari forumning asosiy mavzulari sifatida belgilangan.

Mazkur tadbir O‘zbekistonning sayyohlik va madaniy salohiyatini yanada keng targ‘ib qilish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda madaniyat va kreativ iqtisodiyot sohasiga yangi hamkorlar va investitsiyalarni jalb etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Buxoro 1993-yilda UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. 2023-yilda esa shahar “Hunarmandchilik va xalq ijodiyoti” yo‘nalishi bo‘yicha Ijodiy shaharlar tarmog‘iga qo‘shilib, an’anaviy hunarmandchilik va madaniy almashinuvning yetakchi markazlaridan biri ekanini yana bir bor tasdiqladi.

2004-yilda tashkil etilgan UNESCO Ijodiy shaharlar tarmog‘i 110 dan ortiq mamlakatdan 408 shaharni birlashtiradi. Yillik konferensiya tarmoqning asosiy tadbiri bo‘lib, u a’zo shaharlar vakillarini tajriba almashish, ijodiy industriyalar taraqqiyotini muhokama qilish va xalqaro sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan.

“Dunyo” AA
Parij shahri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Bugun O‘zbekiston deganda, ko‘pchilikning ko‘z o‘ngiga yangi texnologiyalar, zamonaviy universitetlar, katta imkoniyatlar va ishonchli hamkor kelyapti. Bu Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning yorqin natijasidir. AQSH O‘zbekistonda nafaqat jozibador bozorni, balki uzoq muddatli va ishonchli sherikni ham ko‘ryapti.

2026-yil 3-noyabr, 227-son

MARKAZIY OSIYO “KATTA O‘YIN” OBYEKTI EMAS

Sodiq Safoyev Samarqand uchrashuvlari, O‘zbekiston — AQSH munosabatlari va mintaqaning yangi mavqei haqida

Boshlanishi 1-betda

— Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Marko Rubio bilan uchrashuvda “Bugun biz yangi tarix sahifasini ochyapmiz, yangi tarix yaratyapmiz”, dedi. Shu ma’noda, ushbu tashrifning aynan hozir amalga oshirilishiga sabab bo‘lgan omillar va undan ko‘zlangan maqsadlar nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?

— Marko Rubio Registon maydonida mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillariga bergan intervyusida bu savolga javob bo‘ladigan muhim bir fikrni alohida ta’kidlab o‘tdi: “So‘nggi yigirma yilda amerikalik siyosatchilar Markaziy Osiyoga munosib darajada e’tibor qaratmadi. Endi bu vaziyatni o‘zgartirishimiz kerak”. Menimcha, tashrifning aynan hozir o‘tkazilishiga ikki asosiy omil sabab bo‘ldi.

Birinchidan, Markaziy Osiyo, avvalo, mintaqaning yuragi bo‘lgan O‘zbekiston o‘zgardi. Hamkorlik bir-birini tushunish, qarashlar va manfaatlar uyg‘unligiga tayanadi. Masalan, siz gapi gapingizga qovushadigan, sizning dunyoqarashingizga yaqin bo‘lgan odam bilan hamkorlik qilasiz, albatta. Davlatlar ham shunday. Qadriyatlar ishonchni, ishonch esa hamkorlikni mustahkamlaydi.

Tan olish kerak, 2016-yilgacha mamlakatimizdagi siyosiy va iqtisodiy tizim tashqi hamkorlikka unchalik ochiq emas edi. Valyuta konvertatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Hadiksirash, ishonchsizlik va eskicha iqtisodiy yondashuvlar ustun edi. Hatto ayrim mutasaddilarimiz xorijliklar bilan muloqotda “Bizga investitsiya kerak emas, iqtisodiyotimizni o‘zimiz rivojlantira olamiz”, degan qarashni ilgari surardi.

O‘sha yillari amerikalik ishbilarmonlardan nega O‘zbekistonga dadil kirib kelmayotganini so‘rasak, ular iqtisodiyot, qonunchilik va davlat boshqaruvidagi yopiqlikni asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatardilar. Bugun bu muammolarning barchasi Prezidentimiz boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli o‘z yechimini topdi.

Ilgari hatto qo‘shni davlatlar bilan ham ochiq siyosat olib bormaganimiz tufayli Markaziy Osiyoda parokandalik, bir-biriga raqobat ko‘zi bilan qarash kayfiyati kuchaygan edi. Mintaqa manfaatlari va kelajagi mushtarak yagona makon sifatida qabul qilinmasdi. 2017-yildan boshlab muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va tashabbuslari sharofati bilan vaziyat tubdan o‘zgardi. Bugun siyosatchilar “Markaziy Osiyo ruhi” degan iborani bejiz tez-tez tilga olmayapti.

Ikkinchidan, Amerika Qo‘shma Shtatlarining yondashuvi ham o‘zgardi. Hozirgi ma’muriyat mafkuraviy masalalardan ko‘ra, davlatlarni iqtisodiy manfaatlar orqali yaqinlashtirishga ko‘proq urg‘u bermoqda. Bu bizning manfaatlarimizga ham mos. Marko Rubio buni ochiq ifodalab, AQSH Markaziy Osiyo davlatlari, birinchi navbatda, O‘zbekiston bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanini aytdi.

— Sodiq Solihovich, so‘zlaringizdan kelib chiqib, yana bir muhim jihatga to‘xtalsak. Muhtaram Prezidentimizning yillar davomidagi sa’y-harakatlari tufayli Markaziy Osiyo bugun jips va ishonchli mintaqa, xalqaro maydonda esa yagona siyosiy subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda. Siz bu jarayonni qanday baholaysiz?

— To‘g‘ri ta’kidladingiz. Bugungi Markaziy Osiyo haqiqatan birlashyapti. C5+1 formatining o‘zi ham buning yorqin dalili. Bu yerda “C5” — Markaziy Osiyoning besh davlati, “+1” esa yirik xalqaro sherikni anglatadi. Bir yil ichida shunday yettita yuqori darajadagi muloqot o‘tkazildi. Samarqandda Yevropa Ittifoqi bilan boshlangan uchrashuvlar Rossiya, Xitoy, Italiya, Yaponiya va Janubiy Koreya bilan davom etdi. AQSH bilan muloqot esa Vashingtonda, Oq uyda Prezidentlar darajasida bo‘lib o‘tdi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi. Nega ilgari Markaziy Osiyoga chetda qolgan mintaqa sifatida qaralar, uning ahamiyati asosan Afg‘oniston, Rossiya yoki Xitoyga yaqinligi bilan o‘lchanar edi-yu, bugun u jahon siyosatining diqqat markaziga chiqdi? Avvalo, oldin mintaqada strategik mavhumlik bor edi. “Ertaga nima bo‘ladi?” degan savolga aniq javob yo‘q edi. 2017-yildan boshlab O‘zbekiston rahbariyati olib borgan siyosat natijasida bu muhit o‘zgardi. Bugun Markaziy Osiyo — o‘z yo‘nalishini aniq anglayotgan, tobora jipslashayotgan va yirik umumiy bozor sifatida shakllanayotgan mintaqa. Bu xorijiy investorlar uchun yaxshi signal. Ular alohida bir davlat bilan cheklanib qolmay, qariyb 100 million aholiga ega katta bozorga kirish imkoniyatini ko‘ryapti.

AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Rossiya mintaqadagi qoida hamda tamoyillar jahon andozalariga tobora yaqinlashayotganini kuzatyapti. Chunki yondashuvlar o‘zaro mos kelmasa, uzoq muddatli va chuqur hamkorlikni yo‘lga qo‘yish qiyin.

Yana bir muhim omil — tabiiy boyliklar va xomashyo manbalari. Litiy, rux, uran va mis kabi strategik minerallarsiz sun’iy intellekt, yarimo‘tkazgichlar va nanotexnologiyalar bilan bog‘liq zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo yirik iqtisodiyotlarga ta’minot manbalarini diversifikatsiya qilish, bitta bozorga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

— Samarqandda erishilgan iqtisodiy kelishuvlar O‘zbekistonga qanday naf keltiradi?

— Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosiy doktrinasining eng muhim va natijador yo‘nalishi Markaziy Osiyo bo‘lsa, uning yana bir kuchli jihati iqtisodiy diplomatiyadir. So‘nggi o‘n yilda O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy manfaatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Samarqanddagi tadbirlar navbatdagi rasmiy uchrashuv sifatida izsiz o‘tib ketishi ham mumkin edi. Ammo Prezidentimizning siyosiy irodasi va qat’iy pozitsiyasi tufayli ularning mazmun-mohiyati butunlay o‘zgardi. Marko Rubio bilan birga AQSHning 200 ta nufuzli kompaniyasi vakillari keldi. Ular orasida sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar va moliya sohasida jahon iqtisodiyoti rivojiga ta’sir ko‘rsatayotgan yirik kompaniyalar bor. Shulardan eng yirik 12 tasini olsak, umumiy kapitalizatsiyasi, ya’ni qiymati 12 trillion dollarni tashkil qiladi.

Bu — nihoyatda katta raqam. Tasavvur qiling, Yevropaning eng yirik davlatlarining yillik yalpi mahsuloti bundan bir necha bor kamroq.

Eng muhimi, ular bilan muloqotda 200 ta o‘zbek kompaniyasi rahbarlari ham ishtirok etdi. Ilgari bunday tadbirlarda asosan vazirlik, idora va uyushmalar mutasaddilari qatnashardi. Amaldor bilan tadbirkorning tili esa har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Bu safar o‘zbekistonlik ishbilarmonlar aniq taklif, biznes-reja va g‘oyalari bilan tengma-teng muloqot qildi. Bu ham mamlakatimizda yuz bergan o‘zgarishlarning amaliy ifodasidir.

Ayrimlar “AQSH kompaniyalari bizdan faqat o‘z manfaati uchun foydalanadi”, degan fikrni bildiryapti. Albatta, biznes manfaatsiz ishlamaydi. Ammo O‘zbekiston ham bu muloqotni o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib olib boryapti. Bir yilda ikki tomonlama savdo hajmi 30-34 foizga, O‘zbekistonning AQSHga eksporti esa 60 foizga oshdi. Muhimi, eksportimizning katta qismini paxta, metall yoki boshqa xomashyo emas, axborot texnologiyalari xizmatlari tashkil etyapti. Bu kelajakda bizga katta samara beradi.

— Sodiq Solihovich, gaplaringizni tinglar ekanman, Prezidentimizning Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqi yodimga tushdi. Davlatimiz rahbari 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish maqsadini belgilagan edi. Tabiiyki, ko‘pchilikni bu ulkan marraga qanday erishiladi degan savol o‘ylantiradi. AQSHning 200 ta yirik kompaniyasi aniq reja va takliflar bilan Samarqandga kelgani ana shu savolga amaliy javoblardan biri emasmi?

— Bu — juda katta maqsad. Qiyoslash uchun, 2016-yil yakunida O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 52 milliard dollar edi. Bugun bu ko‘rsatkich 160 milliard dollarga yetgan. Yaqin kelajakda uni 300 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromadni esa 10 ming dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Buning uchta muhim omili bor. Birinchisi — siyosiy islohotlar bilan uyg‘un holda iqtisodiyotni liberallashtirish va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochish. Ikkinchisi — xususiylashtirish, davlat tasarrufidagi korxonalarda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Uchinchisi — xorijiy investitsiyalar.

2016-yilda O‘zbekistonga yiliga qariyb 2 milliard dollar investitsiya kiritilgan bo‘lsa, bugun bu raqam 35-40 milliard dollarga yetmoqda. Albatta, investor foyda olish uchun keladi. Biroq u o‘zi bilan yangi texnologiya, ish o‘rinlari, boshqaruv tajribasi va yangi bozorlarni ham olib kiradi.

Samarqanddagi yig‘ilishda Boeing, General Electric va BlackRock kabi yirik kompaniyalar ishtirok etdi. Buni, hech mubolag‘asiz, jahon biznesi yetakchilarining o‘ziga xos paradi deyish mumkin. Xalqimizda “Bularni tuya so‘yib chaqirsang ham kelmaydi” degan gap bor. Bu kompaniyalar hukumat topshirig‘i bilan emas, aniq iqtisodiy manfaat va istiqbolni ko‘rgani uchun keldi.

— Ushbu kompaniyalar bilan muzokaralardan qanday aniq natijalar kutilyapti?

— Samarqandda har ikki tomon manfaatiga mos aniq kelishuvlarga erishildi. 200 ta Amerika va 200 ta O‘zbekiston kompaniyasi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot bo‘lib o‘tdi. Natijada umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollarga teng bo‘lgan 54 ta kelishuv va istiqbolli tashabbuslar to‘plami shakllantirildi, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tashkil etildi.

27-oktabrda O‘zbekistonda Google Pay va Apple Pay to‘lov xizmatlari ishga tushirildi. GE Aerospace bilan aviatsiya texnologiyalari sohasida hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Boeing kompaniyasidan 22 ta zamonaviy samolyot, jumladan, Dreamliner xarid qilish rejalashtirildi. Bir qarashda, samolyot xaridi oddiy tijoriy kelishuvdek tuyulishi mumkin. Aslida, har bir yangi samolyot ortida yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha aviayo‘nalishlar va turizm imkoniyatlari turadi. Bugun mamlakatimiz rivojini cheklab turgan omillardan biri mahalliy va xalqaro aviaqatnovlar soni kamligidir. Yo‘nalishlar ko‘paysa, sayyohlik industriyasiga ham, aholiga ham naf keladi. Samarqand, Buxoro va Xivada turizm rivoji mahalliy iqtisodiyotga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz. Qolaversa, bu bilan O‘zbekiston dunyoga yanada ochiladi.

Energetika sohasida kichik modulli reaktorlar va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha ham kelishuvlarga erishildi. Energetika — iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri. Iqtisodiy o‘sish qo‘shimcha energiya quvvatlarini talab qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyot sun’iy intellekt va axborot texnologiyalariga tayanadi. Ularning asosida esa ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari turadi. Hozir O‘zbekistonda yana ikkita shunday markaz qurilmoqda. Bitta yirik ma’lumotlar markazi juda katta miqdorda elektr energiyasi iste’mol qiladi. Agar mamlakatimizni axborot texnologiyalari markaziga aylantirmoqchi bo‘lsak, yangi energetik quvvatlar yaratishimiz shart. AQSHning yuqori texnologiyali kompaniyalari bilan muloqotlar ana shu imkoniyatni kengaytiradi.

Prezidentimiz Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiyalar kengashi yig‘ilishida O‘zbekistonning eng katta boyligi xomashyo emas, inson kapitali — yosh, iste’dodli va malakali mutaxassislar ekanini alohida ta’kidladi. Shu bois, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish bo‘yicha ham qator kelishuvlarga erishildi.

Dallasdagi Texas universiteti bilan hamkorlikda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Muhandislik fizikasi instituti qoshida Kvant markazi tashkil etilgan va u bugun samarali faoliyat yuritmoqda. Colorado School of Mines — Kolorado konchilik maktabi bilan geologiya va tog‘-kon sanoati uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yana bir quvonarli jihat shuki, AQSH investitsiyalari O‘zbekistonga kirib kelishi bilan birga mamlakatimiz tadbirkorlari ham Amerika iqtisodiyotiga sarmoya kiritmoqda. Masalan, AKFA Group Kentukki shtatining Bouling-Grin shahrida yirik korxona qurmoqda. Korxona ishga tushgach, mahsulotlar Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika bozorlariga eksport qilinadi. Olingan daromad O‘zbekistonda yangi ishlab chiqarishlar va ish o‘rinlari yaratishga xizmat qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning ishbilarmonlik nufuzini ham oshiradi.

Prezidentimiz muhim minerallarni qazib olish bilan cheklanmasdan, ularni chuqur qayta ishlash va yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta’kidladi. Zamonaviy energetika, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va davlat boshqaruviga sun’iy intellekt hamda raqamli yechimlarni joriy etish ham istiqbolli yo‘nalishlar sifatida belgilandi. O‘zbekiston sanoati rivojlangan davlatlarga faqat xomashyo yetkazib beruvchi mamlakat bo‘lib qolmasligi, qo‘shimcha qiymat, avvalo, o‘zimizda yaratilishi zarur.

— Markaziy Osiyo yirik davlatlar manfaatlari kesishadigan hududda joylashgan. Ayrim ekspertlar AQSHning mintaqaga qiziqishini yangi “Katta o‘yin”ning bir qismi sifatida baholamoqda. Geosiyosiy raqobat kuchaygan bir paytda O‘zbekiston qanday yo‘l tutishi kerak?

— Samarqand anjumanlariga turlicha baho berilayotgani tabiiy. Chunki O‘zbekiston saviyasi, ko‘lami va natijalari jihatidan har qanday davlat ham o‘tkaza olmaydigan yirik tadbirga mezbonlik qildi.

“Markaziy Osiyo atrofida yangi “Katta o‘yin” boshlandimi?” degan savol ham yangrayapti. Tarixdagi “Katta o‘yin” Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining Markaziy Osiyoda hukmronlik o‘rnatish uchun olib borgan uzoq raqobatini anglatar edi. Bugungi jarayon u davrdagi klassik “Katta o‘yin”dan keskin farq qiladi.

Birinchidan, o‘sha paytda asosiy o‘yinchilar ikkita edi. Bugun esa ular ancha ko‘p. Bir yil ichida yettita yirik sherik Markaziy Osiyo davlatlari bilan C5+1 shaklida muloqot o‘tkazdi. Bu ular mintaqadan nimadir kutayotganini, bu yerda hamkorlikka undaydigan salohiyat va imkoniyat borligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ilgari Markaziy Osiyo “Katta o‘yin”ning obyekti edi. Mintaqa o‘yin qoidalari yoki voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsata olmasdi. Bugun esa Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston jarayonlarning obyekti emas, teng huquqli ishtirokchisiga aylanmoqda. Samarqand muloqotlari buni yana bir bor ko‘rsatdi.

Yirik kuchlar o‘rtasidagi raqobatni milliy taraqqiyot uchun imkoniyatga aylantirish kerak. Buning uchun O‘zbekiston o‘z manfaatiga eng mos, uzoq muddatli foyda keltiradigan takliflarni tanlashi zarur.

— Marko Rubio o‘z nutqida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev amalga oshirayotgan islohotlarga yuksak baho berdi. Amerika tomonining bunday e’tirofi zamirida nima bor?

— Marko Rubio ko‘p yil senator bo‘lgan, qarashlari qat’iy siyosatchi. Menimcha, u tasodifiy so‘z aytmaydi. Prezidentimizga yuzlanib, “Siz o‘z mamlakatingizni dunyoga ochdingiz va ayni paytda dunyoni O‘zbekiston uchun ochdingiz”, dedi. Bu so‘zlar zamirida katta ma’no bor. Ular, avvalo, Yangi O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini ifodalaydi.

Ilgari AQSHda O‘zbekiston haqida gap ketganda, ko‘pincha muammoli mavzular tilga olinardi. “Jasliq”, radikal guruhlarga qo‘shilgan ayrim vatandoshlarimiz yoki xorijda og‘ir va kam haq to‘lanadigan ishlarda mehnat qilayotgan migrantlarimiz haqida so‘z borardi.

Bugun O‘zbekiston deganda, ko‘pchilikning ko‘z o‘ngiga yangi texnologiyalar, zamonaviy universitetlar, katta imkoniyatlar va ishonchli hamkor kelyapti. Bu Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning yorqin natijasidir. AQSH O‘zbekistonda nafaqat jozibador bozorni, balki uzoq muddatli va ishonchli sherikni ham ko‘ryapti.

— Marko Rubio islohotlar bilan birga Prezident Shavkat Mirziyoyev jamoasining mehnatini ham e’tirof etdi. Tashrifga katta tayyorgarlik ko‘rilgani va har bir jihat puxta o‘ylangani sezilib turdi.

— Darhaqiqat, Amerika — O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiyalar kengashi yig‘ilishi juda keng ko‘lamli tadbir bo‘ldi. Amerikalik kompaniyalar rahbarlari Samarqand anjumanining ikki jihatini alohida e’tirof etdilar.

Birinchisi — tadbir yuqori saviyada tashkil etilgani, barcha tashkiliy masalalar jahon andozalari darajasida hal qilingani. Bu Samarqand dunyo miqyosidagi xalqaro anjumanlar markaziga aylanayotganini ko‘rsatdi.

Ikkinchisi — O‘zbekiston Prezidenti bilan muloqotda avvalgi va keyingi uchrashuvlar o‘rtasida uzviylik borligi. Oldin belgilangan rejalarning ijrosi, erishilgan natijalar va navbatdagi uchrashuvgacha bajariladigan vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Bu amerikalik hamkorlarda gap uzoq muddatli strategik siyosat to‘g‘risida ketayotganiga ishonch uyg‘otdi. Ayrim kompaniya rahbarlari “O‘zbekiston bilan nafaqat o‘zimiz ishlaymiz, balki Amerikadagi hamkorlarimizni ham olib kelamiz”, deb aytdi.

Marko Rubio ham o‘z nutqida Amerika tomonidan Serjio Gorning, O‘zbekiston tomonidan esa Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning sa’y-harakatlarini yuqori baholadi.

Ayni paytda amerikalik sarmoyadorlar uchun tushunarli va oldindan bashorat qilish mumkin bo‘lgan sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekistonga kelgan investor ma’muriy tartib-taomillarga ortiqcha vaqt sarflamasdan, biznesini tez boshlash imkoniga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda “Plug and Play” tamoyiliga asoslangan yangi yondashuv joriy etilmoqda. Investorlarga yer maydoni, infratuzilmasi va ruxsat hujjatlari tayyor bo‘lgan loyihalar taklif etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyevaning nutqiga Davlat kotibi Marko Rubio va amerikalik hamkorlarimiz juda katta baho berganini alohida ta’kidlashni istar edim. Chunki unda tadbirkorlar uchun tushunarli bo‘lgan iboralar, tushunchalar va atamalardan foydalanilgan edi. Shakl nuqtai nazaridan ham nutq qisqa, muxtasar, shu bilan birga, kuchli ta’sirga ega bo‘ldi va tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

Samarqanddagi siyosiy va iqtisodiy muloqotlarning asosiy xulosasi shuki, AQSH Yangi O‘zbekistonni, uning rahbari olib borayotgan siyosatni va mamlakatimizning tobora yuksalib borayotgan mavqeini e’tirof etdi. Mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muloqot endi faqat bir tomon manfaatidan kelib chiqib emas, O‘zbekiston manfaatlarini ham hurmat qilgan holda olib borilmoqda.

Prezidentimiz Marko Rubioga “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini topshirganida uning hayajoni yuz-ko‘zidan sezilib turdi. Davlat kotibi “Men bu ordenni taqib, Oq uyga kiraman”, dedi faxr bilan. Bu so‘zlarda O‘zbekiston rahbariga, davlatimiz va xalqimizga nisbatan samimiy munosabat ifodalandi.

Suhbatimiz yakunida yana bir fikrni ta’kidlamoqchiman. O‘zbekiston mintaqaviy miqyosdagi yirik davlatga aylanmoqda. Samarqanddagi uchrashuvlar buni yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

— Katta rahmat, Sodiq Solihovich. Samarqand uchrashuvlarining tafsilotlari va natijalari hali ko‘p tahlil qilinadi. Eng muhimi, bu jarayon Prezidentimizning uzoq yillik sa’y-harakatlari samarasi bo‘lib, uning natijalari nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari manfaatiga xizmat qiladi.



> **Ilgari hatto qo‘shni davlatlar bilan ham ochiq siyosat olib bormaganimiz tufayli Markaziy Osiyoda parokandalik, bir-biriga raqobat ko‘zi bilan qarash kayfiyati kuchaygan edi. Mintaqa manfaatlari va kelajagi mushtarak yagona makon sifatida qabul qilinmasdi. 2017-yildan boshlab muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va tashabbuslari sharofati bilan vaziyat tubdan o‘zgardi. Bugun siyosatchilar “Markaziy Osiyo ruhi” degan iborani bejiz tez-tez tilga olmayapti.**

> **Prezidentimiz Marko Rubioga “Buyuk xizmatlari uchun” ordenini topshirganida uning hayajoni yuz-ko‘zidan sezilib turdi. Davlat kotibi “Men bu ordenni taqib, Oq uyga kiraman”, dedi faxr bilan. Bu so‘zlarda O‘zbekiston rahbariga, davlatimiz va xalqimizga nisbatan samimiy munosabat ifodalandi.**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist,
Oliy Majlis Senati a’zosi
Husan ERMATOV suhbatlashdi.

Birinchi D — Data, ya’ni ma’lumot. Mintaqaviy hamkorlikni rejalashtirish uchun har bir hududda yetishtiriladigan mahsulot hajmi, suv tanqisligining o‘zgarishi, navlarning tuproq va iqlimga mosligi haqida ishonchli ma’lumot kerak. Aholining oziqlanish ehtiyoji, bozorlar o‘rtasidagi narx farqi, fermer xarajati va daromadi shu manzaraning bir qismidir.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SAVATI: BIR-BIRINI TO‘LDIRADIGAN YANGI IMKONIYATLAR



Tahlil



Ibrohim ABDURAHMONOV, qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik

Boshlanishi 1-betda

Ana shu yaqinlikni ishlab chiqarish, ilm-fan, logistika va bozorni birlashtiradigan ustunlikka aylantirish mumkin. Buning uchun har bir mamlakatning alohida imkoniyati umumiy zanjirda o‘z o‘rnini topishi kerak.

Shu maqsadda Central Asian Food Systems Compact, ya’ni Markaziy Osiyo oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik dasturi taklif etildi. Uning amaliy asosini yettita D tashkil qiladi: Data, Diversification, Design, Doable, Discipline, Durable va Dignity. O‘zbekcha mazmunda bular ma’lumot, diversifikatsiya, tizimni to‘g‘ri loyihalash, amalda ishlaydigan yechim, intizom, davomiylik va inson qadrini anglatadi. Muhimi, bu tamoyillar bir-birini to‘ldirib ishlashi lozim.

Forum ishtirokchilari bilan muhokamalarda yondashuv qiziqish uyg‘otdi. Uning mantig‘ini dengizga chiqishi chegaralangan boshqa davlatlar va Global Janub mamlakatlariga ham mahalliy sharoitni hisobga olgan holda moslashtirish imkoniyati muhokama qilindi. Demak, Markaziy Osiyoda boshlanadigan amaliy hamkorlik kengroq tajriba almashinuvi uchun ham asos bo‘lishi mumkin.

Yetti raqami bu tashabbusda davomiylik ramzidir. Hafta yetti kundan iborat bo‘lgani kabi oziq-ovqat xavfsizligiga e’tibor ham haftadan haftaga, mavsumdan mavsumga va avloddan avlodga uzilmasligi kerak. Bu odamlarni dam olishsiz ishlatishga chaqiriq emas. Gap aholi ta’minoti, ilmiy kuzatuv va xizmatlarni barqaror yo‘lga qo‘yadigan ishonchli muassasalar, uzoq muddat amal qiladigan kelishuvlar va boshlangan ishni oxiriga yetkazish mas’uliyati haqida bormoqda.

D harfi yetti tamoyilning bosh harfidir. Biz unga inglizchadagi “depend on one another” — “bir-birimizga tayanamiz” degan ramziy ma’noni ham yuklaymiz. Mamlakatlarimiz mustaqil, oziq-ovqat tizimlarimiz esa o‘zaro bog‘liq. Bir hududdagi suv, energiya, hosil yoki transport masalasi qo‘shni hududdagi fermer va iste’molchi hayotiga ham ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlik o‘zaro mas’uliyatni talab etadi.

Markaziy Osiyoda buning hayotiy asosi bor. Suv rejimi energiya ishlab chiqarish, sug‘orish va hosilga, transportdagi kechikish esa fermer daromadi va bozor narxiga ta’sir qiladi. Shuning uchun hamkorlikda vazifalar, xarajat va foyda taqsimoti hamda natijani o‘lchash mezonlari oldindan kelishib olinishi zarur. Yetti tamoyil ana shu bog‘liqlikni har bir tomonning aniq majburiyati va manfaatiga aylantirishga xizmat qiladi.

Yaxlit mexanizm va iqtisodiy qiymat

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish imkoniyati va agrar tajribasi turlicha. Umumiy oziq-ovqat savatining kuchi ham shu xilma-xillikda. Bir mamlakatdagi bilim, resurs yoki mahsulot qo‘shni davlatning ehtiyoji bilan uchrashganda, alohida imkoniyatlar o‘zaro manfaatli hamkorlikka aylanadi.

Qozog‘iston ulkan g‘alla maydonlari, moyli ekinlar, chorvachilik va tranzit salohiyatiga ega. Qirg‘iziston tog‘ yaylovlari, chorvachilik, suv resurslari va kichik fermer xo‘jaliklari bilan ajralib turadi. Tojikiston tog‘ dehqonchiligi, bog‘dorchilik va suv manbalarini boshqarish tajribasiga ega. Turkmaniston quruq iqlimda dehqonchilik yuritish, chorvachilik va tranzit imkoniyatlariga tayanadi. O‘zbekiston esa intensiv dehqonchilik, paxtachilik, meva-sabzavotchilik, ilm-fan, qayta ishlash va aholi zich joylashgan katta bozorni birlashtiradi.

Bu imkoniyatlar bir tizimga bog‘langandagina umumiy oziq-ovqat savati shakllanadi. Bir mamlakatda yaratilgan urug‘ yoki texnologiya boshqa mamlakat fermeriga yetib borishi, ilmiy natija dalada sinovdan o‘tishi, mahsulot saqlash va sovitish tizimiga ulanishi zarur. Keyin u chegaradan ortiqcha to‘siqlarsiz o‘tib, iste’molchiga sifatli holda yetishi kerak. Fermer mehnatining qiymati shu yo‘lning oxirigacha saqlanishi muhim.

Shuning uchun quruqlik orqali bog‘langanlik avtomobil va temir yo‘llar bilan birga umumiy standartlar, fitosanitariya va veterinariya xavfsizligi, suv va iqlim ma’lumotlari, ilm-fan, raqamli kuzatuv, moliya, sovitish zanjiri va qayta ishlashni ham qamrab oladi. Yo‘l mahsulotni olib o‘tadi, ishonchli tizim esa uning sifati va iqtisodiy qiymatini saqlaydi. Geografik yaqinlik ana shunday hamkorlik orqali amaliy ustunlikka aylanadi.

Birinchi D — Data, ya’ni ma’lumot. Mintaqaviy hamkorlikni rejalashtirish uchun har bir hududda yetishtiriladigan mahsulot hajmi, suv tanqisligining o‘zgarishi, navlarning tuproq va iqlimga mosligi haqida ishonchli ma’lumot kerak. Aholining oziqlanish ehtiyoji, bozorlar o‘rtasidagi narx farqi, fermer xarajati va daromadi shu manzaraning bir qismidir. Masalan, hosil mo‘l bo‘lgan hududni bilish bilan birga uni qayerda saqlash va qaysi bozorga yetkazishni ham hisoblash lozim.

Shu ehtiyojdan kelib chiqib, mintaqaviy Oziq-ovqat savati observatoriyasini tashkil etish taklif qilindi. U ishlab chiqarish, suv, tuproq, oziqlanish, savdo, logistika va fermer iqtisodiyoti bo‘yicha taqqoslanadigan ma’lumotlarni birlashtirishi mumkin. Bunday tahlil investitsiyani ehtiyoj bor joyga yo‘naltirish, xavfni ertaroq ko‘rish va hamkorlik natijasini baholashga yordam beradi. Blue Nutrition yo‘nalishida baliq va boshqa dengiz mahsulotlarining oziqaviy tarkibi, hamyonbopligi va aholiga qay darajada yetib borayotganini ham o‘rganish zarur.

Xilma-xillik barqarorlik demakdir

Ikkinchi D — Diversification, ya’ni diversifikatsiya. Bu yondashuv ekinlar bilan birga navlar, texnologiyalar, mahsulotlar, bozorlar, moliya manbalari va hamkorlar doirasini kengaytirishni anglatadi. Bir yo‘nalishda qiyinchilik tug‘ilganda boshqa imkoniyatlar ishlab turishi fermer uchun ham, mintaqa uchun ham muhim. Shu bois, xilma-xillik oziq-ovqat tizimi barqarorligiga xizmat qiladi.

Buning eng oddiy ifodasi oila dasturxonida ko‘rinadi. G‘alla oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo‘lib qoladi, to‘laqonli oziqlanish esa meva, sabzavot, dukkaklilar, kartoshka, go‘sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlarini ham talab etadi. Ishlab chiqarishdagi xilma-xillik aholining sog‘lom oziqlanishi va qishloqdagi daromad manbalari bilan bog‘lanishi kerak.

Shu nuqtada Blue Nutrition, ya’ni baliq va boshqa dengiz mahsulotlari orqali aholining oziqlanishini yaxshilash konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoda dengiz mahsulotlarini dasturxonga muntazam yetkazish imkoniyati cheklangan. Ochiq dengiz va okeanlarga bevosita chiqish yo‘li yo‘qligi ularni tashish, sovitish va saqlashni qiyinlashtiradi. Shu bois, bu masalani mamlakatlarimiz birgalikda hal etishi zarur.

Ayni paytda o‘zimizda yetishtiriladigan baliqning oziqaviy qiymatini ham chuqurroq o‘rganishimiz kerak. Chuchuk suv va dengiz baliqlarida yod, omega-3 yog‘ kislotalari va boshqa oziq moddalar miqdori bir xil emas. U baliq turi, ozuqasi va yetishtirish sharoitiga qarab o‘zgaradi. Demak, aholining oziqlanish ehtiyojini qondirishda baliq yetishtirish hajmi bilan birga uning tarkibi va dasturxondagi mahsulotlar xilma-xilligiga ham e’tibor qaratish lozim.

Buning uchun ikki yo‘nalishni uyg‘un yurgizishimiz zarur. Bir tomondan, Markaziy Osiyoda suv omborlari, daryolar, kanallar va xo‘jalik havzalarining baliqchilik imkoniyatlaridan suv resurslari va ekotizimlarni asragan holda foydalanishimiz kerak. Ikkinchi tomondan, dengiz va okeanbo‘yi davlatlari bilan Blue Nutrition bo‘yicha qo‘shma dasturlarni kengaytirishimiz lozim. Bunday hamkorlik ilmiy tajriba va texnologiya almashish, mahsulotlarning oziqaviy tarkibini o‘rganish hamda dengiz mahsulotlarini xavfsiz va hamyonbop yetkazib berishni qamrab olishi mumkin. Baliqchilik dehqonchilik, ozuqa ishlab chiqarish, sovitish, veterinariya, bioxavfsizlik va bozor bilan bog‘lansa, aholining oqsil va boshqa zarur oziq moddalarga boy mahsulotlardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Blue Nutrition shu tariqa mamlakatlarimizni umumiy oziqlanish maqsadlari atrofida birlashtirib, mintaqaviy hamkorlikni dengizbo‘yi hamkorlar bilan bog‘laydi.

Kartoshkachilikda ham shu mantiq ishlaydi. Maydonni kengaytirish bilan birga sog‘lom urug‘, mahalliy urug‘chilik, navni hududga mos joylashtirish, suv va oziqlantirish, kasalliklar nazorati, saqlash va qayta ishlashni uyg‘unlashtirish zarur. Dalada yaxshi hosil olinib, saqlashda uning sifati yo‘qolsa, fermer kutgan daromadga erisha olmaydi.

Uchinchi D — Design, ya’ni tizimni to‘g‘ri loyihalash. Yaxshi g‘oyani amalga oshirish uchun uning atrofidagi ishlar ham puxta tashkil qilinishi lozim. Ilmiy natijani sinaydigan tashkilot, fermer xavfini kamaytirish choralari, mahsulotni oladigan xaridor, moliyalashtirish muddati va natijani baholash mezonlari boshidanoq belgilanishi kerak. Shunda olimning ishi fermer, bank va bozor imkoniyatlari bilan o‘z vaqtida tutashadi.

Central Asian Food Systems Compact ana shu bog‘lanishni tashkil etishga qaratilgan. U mavjud milliy va mintaqaviy institutlarni aniq vazifalar atrofida birlashtiradigan ixcham hamkorlik platformasi bo‘lishi lozim. Katta yangi byurokratik tuzilma yaratishdan ko‘ra, mavjud imkoniyatlarni bir maqsadga ishlatish muhim.

Fermer xo‘jaligida ishlaydigan yechim

To‘rtinchi D — Doable, ya’ni amalda bajarish mumkin bo‘lgan yechim. Qishloq xo‘jaligida ilmiy yangilikning yo‘li maqola yoki laboratoriya natijasi bilan tugamaydi. U mahalliy dalada, fermerning mehnati va mablag‘i bilan, bozor sharoitida ishlashi kerak. Fermer uni qo‘llay olishi va nafini o‘z xo‘jaligida ko‘rishi ilmning amaliy qiymatini ochadi.



Shu maqsadda “proof-of-use”, ya’ni amalda foydalanish isbotiga asoslangan grant va moliyalashtirish mexanizmlari taklif etildi. Grant ilmiy natija yoki prototip yaratishdan keyin ham yechimni fermer bilan birga sinash va qo‘llashni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ilm bilan uning birinchi foydalanuvchisi o‘rtasidagi masofani qisqartirishga qaratilgan.

Ilmiy mexanizm va texnologiya yaratilgach, yechim mahalliy tuproq va iqlimda sinaladi. Fermer uning xarajati, mehnat talabi va xavfini baholashda ishtirok etadi. Mahsulot sifati, xaridor va bozor imkoniyati ham o‘rganiladi. Ana shu bosqichlarda to‘plangan dalillar kengaytirish uchun investitsiya jalb qilishga asos bo‘ladi.

Navbatdagi mablag‘ avvalgi bosqichdagi tekshirilgan natijaga qarab ajratiladi. Samara bermagan loyiha ochiq baholanib, o‘zgartiriladi yoki to‘xtatiladi. Halol ilmiy xatoni yashirmasdan, undan o‘rganish imkoniyati bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mablag‘ni yillar davomida ajratish yechimning amaldagi natijasi bilan asoslanishi lozim.

Intizom texnologiyaning bir qismidir

Beshinchi D — Discipline, ya’ni intizom. O‘zbekiston paxtachiligi bu tamoyilning amaliy ahamiyatini ko‘rsatdi. 2021-2025-yillarda paxta maydoni 1 million 31 ming gektardan 875,6 ming gektarga kamaydi. Shu bilan birga, umumiy hosil 19,3 foiz o‘sib, qariyb 4 million tonnaga yetdi. O‘rtacha hosildorlik gektariga 3,24 tonnadan 4,55 tonnaga oshdi. Boshqacha aytganda, kamroq yerda ko‘proq hosil olish imkoni paydo bo‘ldi. 2026-yilda esa o‘rtacha hosildorlik gektariga 5,2 tonnaga yetib, jami 4,5 million tonna paxta xomashyosi yetishtirilishi kutilmoqda.

Bu natijada o‘zaro bog‘langan agrotexnik tadbirlarning o‘rni katta. Paxtachilikda ishlab chiqilgan sakkiz qonuniyat sog‘lom ko‘chat qalinligi, to‘g‘ri ekish sxemasi, o‘simlik arxitekturasini boshqarish, muvozanatli oziqlantirish, pishib yetilishni o‘z vaqtida boshqarish, uyg‘unlashgan himoya, har bir ishni belgilangan muddat va ketma-ketlikda bajarish hamda ekologik toza dala tamoyillarini qamrab oladi. Ular bajarilishi shart bo‘lgani uchun “qonuniyat” deb nomlangan. Ularning samarasi bir-birini to‘ldirib ishlashida.

Yettinchi qonuniyat, ayniqsa, muhim: bir agrotexnik bo‘g‘in o‘tkazib yuborilsa, keyingi tadbirlar samarasi pasayishi mumkin. Mintaqaviy oziq-ovqat tizimida ham sifat standarti, sovitish zanjiri, chegaradan o‘tish muddati, kasalliklar monitoringi va investitsiya majburiyatlari o‘z vaqtida bajarilishi zarur. Daladagi mehnat chegaradagi kechikish yoki sovitishdagi uzilish sabab qadrsizlanib qolmasligi shart.

O‘zbekistonda ishlab chiqilgan sakkiz qonuniyatning mantig‘ini boshqa ekinlarga, Markaziy Osiyo va Global Janub mamlakatlariga mahalliy sharoitni hisobga olgan holda moslashtirish mumkin. Bunda to‘liq texnologiya, o‘z vaqtida bajarish va natijani o‘lchash tamoyili saqlanadi. Aniq agrotadbir esa har bir ekin va hududning xususiyatiga qarab tanlanadi.

Mavsumdan mavsumga saqlanadigan samara

Oltinchi D — Durable, ya’ni davomli va barqaror natija. Bir yil yuqori hosil olish muhim, ammo keyingi mavsumlar uchun tuproq, suv va fermerning iqtisodiy imkoniyati saqlanishi kerak. Suvni ortiqcha sarflab, tuproqni zaiflashtirib yoki xo‘jalikni qarzga botirib olingan natija uzoqqa bormaydi.

G‘o‘zapoyani biocharga aylantirish bu bog‘liqlikni ko‘rsatadigan misollardan biridir. To‘g‘ri texnologiya va mahalliy sharoitga qarab, biochar tuproqda uglerod va namni saqlashga, organik qoldiqdan qo‘shimcha qiymat yaratishga yordam berishi mumkin. Natijani tekshirish va shaffof hisobga olish tizimi mavjud bo‘lsa, karbon bozori ham qo‘shimcha daromad imkoniyatini beradi. Bunda tuproq, suv, iqtisod, bozor va inson manfaati birgalikda ko‘riladi.

Avvalo, texnologiyaning tuproqqa, hosilga va fermer iqtisodiyotiga foydasi tasdiqlanishi shart. Karbon daromadi ana shu haqiqiy natija ustiga qurilgan qo‘shimcha manba bo‘lishi lozim. Xo‘jalikning asosiy iqtisodiy mantig‘i faqat kelajakdagi karbon kreditiga bog‘lanib qolmasligi kerak.

Islohot markazida inson qadri

Yettinchi D — Dignity, ya’ni inson qadri. Qishloq xo‘jaligidagi har qanday texnologiya oxir-oqibat inson hayotiga ta’sir qiladi. Shuning uchun tonna, gektar va eksport ko‘rsatkichlari bilan birga fermer xonadonida, qishloq hayotida va iste’molchi dasturxonida yuz berayotgan o‘zgarishni ham ko‘rish zarur.

Fermer daromadi oshishi, xavfi kamayishi, xotin-qizlar va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi, sifatli va sog‘lom oziq-ovqat iste’molchiga yetib borishi shu natijaning asosiy mezonlaridir. Texnologiya haqidagi qarorda fermerning fikri eshitilishi va manfaati hisobga olinishi ham “Dignity”ning amaliy ifodasidir.

Bu yerda O‘zbekiston ilgari surayotgan STEM+HECI yondashuvi alohida ahamiyatga ega. STEM — tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematika — genetika, agronomiya va raqamli yechimlarni rivojlantirish uchun bilim beradi. HECI esa “Humanity, Ethics, Creativity va Imagination”, ya’ni insonparvarlik, axloq, ijodkorlik va tasavvur orqali shu bilimlarni inson manfaatiga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Ilm amalga oshirish mumkin bo‘lgan yechimlarni ko‘rsatadi. Insonparvarlik va axloq ularni jamiyat ehtiyoji va kelajak oldidagi mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bois, fermer texnologiyani tanlash, sinash, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etishi lozim. Uning bilimi, mehnati, ma’lumotlariga doir huquqlari va zimmasiga oladigan xavfi adolatli hisobga olinishi kerak.

Shunda ishtirok maslahat so‘rash bilan tugamaydi. Fermerning fikri qarorga ta’sir qiladi, manfaati va mas’uliyati esa boshqa ishtirokchilar bilan birga belgilanadi. Inson qadri amaliyotda ana shunday namoyon bo‘ladi.

Epigenetikaga asoslangan dehqonchilik

7D tamoyillarining birga ishlashini tashabbusning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri — epigenetik bilimga asoslangan dehqonchilik misolida ko‘rish mumkin. Bu yondashuv o‘simlikning mavjud genetik imkoniyatini muhit va parvarish bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratadi.

Yaxshi nav katta imkoniyatga ega, ammo bu imkoniyat tuproq, harorat, suv, oziqlantirish va boshqaruv ta’sirida namoyon bo‘ladi. Ayrim muhit ta’sirlari genlar ishlashini o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun urug‘ning ekishgacha bo‘lgan holati va keyingi parvarishni tushunish genetik bilimning daladagi qiymatini ochishga yordam beradi.

O‘zbekistonda bug‘doy urug‘ini ekishdan oldin sovuq sharoitda chiniqtirish, navni hududga mos joylashtirish, tuproq va suvni boshqarish hamda muvozanatli oziqlantirish kabi yondashuvlar sinovdan o‘tdi. 2026-yilgi milliy tahlilga kiritilgan taqqoslanadigan maydonlarda o‘rtacha hosildorlik gektariga 97,8 sentnerga yetdi. Bu natija genetika va agrotexnikani birgalikda o‘rganishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Bu raqamni boshqa dalalar uchun tayyor kafolat deb qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Har bir fermerning yeri, suvi, navi va agrotexnikasi turlicha. Asosiy mantiq yaxshi genetika imkoniyatini to‘g‘ri muhit va parvarish bilan ochishdir. Buning uchun har bir yechimning mahalliy sharoitda beradigan natijasi o‘lchanishi kerak.

To‘rtta umumiy missiya

Markaziy Osiyo oziq-ovqat tizimlari dasturini to‘rtta umumiy missiya atrofida boshlash taklif qilindi. Ular mamlakatlarni muayyan muammo va o‘lchanadigan natija atrofida birlashtirishi, har bir davlatning ilmiy va amaliy imkoniyatiga tayanishi lozim.

Birinchi missiya epigenetik bilimga asoslangan dehqonchilikka qaratildi. Ikkinchisi Blue Nutrition orqali baliq va boshqa dengiz mahsulotlarining oziqlanishdagi o‘rnini kengaytirishni qamrab oldi. Bu yo‘nalish mahalliy baliqchilikni rivojlantirish, mahsulotlarning oziqaviy qiymatini o‘rganish va dengizbo‘yi davlatlari bilan hamkorlikda aholining turli suv mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini oshirishni birlashtiradi. Uchinchisi mahsulotni dala, saqlash, qayta ishlash, transport va bozor bilan bog‘laydigan quruqlik logistika yo‘laklarini shakllantirishga yo‘naltirildi. To‘rtinchisi organik qoldiqlar, biochar, tuproq salomatligi va tekshiriladigan karbon daromadini birlashtiruvchi aylanma uglerod qishloq xo‘jaligini nazarda tutdi.

Bu missiyalarni birlashtiruvchi talab ham umumiy: ilmiy mexanizm tushunarli, mahalliy sinov ishonchli, fermer iqtisodiyoti hisoblangan, xavfsizlik, ekologik ta’sir va bozor imkoniyati baholangan bo‘lishi zarur. Natija shaffof o‘lchanganda hamkorlar keyingi qadamni birgalikda belgilay oladi.

Rimdagi yetti taklifdan daladagi natijaga

Rimda ilgari surilgan yettita taklif ana shu g‘oyalarni daladan dasturxongacha bo‘lgan amaliy zanjirga aylantirishga qaratildi. Ularning tayanchi Food Systems Compact bo‘lishi taklif etildi. Mamlakatlar shu dastur doirasida umumiy maqsadlar, vazifalar va har bir hamkorning mas’uliyatini kelishib olishi mumkin.

Bunday hamkorlikka ishonchli ma’lumot kerak. Taklif etilgan Oziq-ovqat savati observatoriyasi suv tanqisligi, mahsulot hajmi, oziqlanish ehtiyojlari va tashish xarajatlari haqidagi ma’lumotlarni birlashtirishi lozim. Shunda umumiy qarorlar ehtiyoj, imkoniyat va mavjud cheklovlarni aniqroq hisobga oladi.

Keyingi qadam yangilikni fermer bilan birga sinashdir. Har bir mamlakatda 7D asosida Living Labs — olim va fermer birga ishlaydigan amaliy sinov maydonlarini tashkil etish taklif qilindi. Mintaqaviy proof-of-use moliyalashtirishi yechimni laboratoriyadan daladagi haqiqiy foydalanishgacha qo‘llab-quvvatlashi kerak. Fermerning o‘zi uning nafini ko‘rishi bu jarayonning muhim natijasidir.

Epigenetik bilimga asoslangan dehqonchilik va Blue Nutrition bo‘yicha qo‘shma ilmiy missiyalar ham shu maqsadga xizmat qiladi. Biri genetika va agrotexnika uyg‘unligini o‘rgansa, ikkinchisi mahalliy baliqchilik, dengiz mahsulotlarining oziqaviy qiymati va dengizbo‘yi hamkorlar bilan aloqalarni sog‘lom oziqlanish maqsadiga bog‘laydi. Mahsulotni saqlash, qayta ishlash va bozorga yetkazish uchun esa quruqlik orqali bog‘langan oziq-ovqat yo‘laklariga qo‘shma investitsiya portfelini tayyorlash taklif etildi. Bu yo‘laklarda sovitish zanjirining uzluksiz ishlashi baliq va dengiz mahsulotlari uchun, ayniqsa, muhim.

Boshqa mintaqada ustuvor vazifa o‘zgacha bo‘ladi. Suv tanqis hududda hamkorlik suvdan samarali foydalanishga, mahsulot tez buziladigan joylarda sovitish va qayta ishlashga qaratilishi mumkin. Blue Nutrition esa dengizbo‘yi va dengizga chiqishi cheklangan mamlakatlar imkoniyatlarini bog‘laydi. Barqaror baliqchilik, oziqaviy qiymatni hisobga olgan savdo va ishonchli sovitish zanjiri orqali turli suv mahsulotlarini aholiga xavfsiz va hamyonbop yetkazish mumkin. Umumiy daryo havzasi yoki savdo yo‘lagi atrofidagi mamlakatlar shu vazifalar uchun o‘z hamkorlik dasturini tuzadi. Umumiy mantiq saqlanadi, amaliy yechim mahalliy sharoitdan kelib chiqadi.

Bunday dasturlarda ham yetti tamoyil birga ishlaydi. Mamlakatlar o‘lchov va sifat talablarini kelishadi, yechimlarni o‘z sharoitida sinaydi, mas’ullar va moliya manbalarini belgilaydi. Milliy qarorlar har bir davlat vakolatida qoladi, transchegaraviy masalalar kelishuv asosida hal etiladi. Xarajat va foyda adolatli taqsimlanishi hamkorlikni ishonchli qiladi va uni uzoq muddat saqlashga yordam beradi.

Natijani eksport yoki yalpi hosil bilan birga fermer daromadi, oziq-ovqatning aholi uchun hamyonbopligi, ovqatlanish sifati, tejalgan suv va kamaygan yo‘qotishlar orqali ham baholash lozim. Markaziy Osiyodagi sinovlar shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli natija bersa, tajribani boshqa mintaqalarga taklif qilish uchun amaliy asos paydo bo‘ladi. Bunda tarqatiladigan narsa tayyor qolipdan ko‘ra, mahalliy yechim yaratish va uni birgalikda tekshirish tajribasidir.

Shu tariqa Markaziy Osiyo jahon oziq-ovqat savatiga mahsulot bilan birga hamkorlik tajribasini ham taklif qilishi mumkin. Maqola boshidagi oila dasturxoniga qaytsak, bu tashabbusning haqiqiy ma’nosi yanada aniq ko‘rinadi. Fermer yetishtirgan hosil iste’molchiga yetib borsa, uning mehnati daromadga aylansa, dasturxon boyib, suv va tuproq keyingi mavsumlar uchun ham asralsa, hamkorlik o‘z maqsadiga xizmat qilgan bo‘ladi.

Ilm-fan taraqqiyoti

Turkiy davlatlarni mushtarak tarix, yaqin madaniyat, ma’naviy qadriyatlar va bir-biridan kuch olgan ilm-fan sivilizatsiyalari birlashtirib turadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Koshg‘ariy, Xoja Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Yunus Emro kabi allomalar ilmi va ijodida o‘zidan oldin yashab o‘tgan qardoshlarining o‘rni beqiyos. Shu nuqtai nazardan, turkiy davlatlar o‘rtasida oliy ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bugun ham alohida ahamiyat kasb etadi.





TURKIY DAVLATLAR

INTELLEKTUAL SALOHIYATI UMUMIY RIVOJLANISH YO‘LIDA



Bahodir TO‘RAYEV,
Turkiy davlatlar xalqaro universiteti rektori v.b.

Keyingi yillarda davlatlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik, do‘stlik-birodarlik, har jabhada manfaatli hamkorlik tobora mustahkamlanmoqda. Bunga Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari kabi xalqaro platformalar keng yo‘l ochmoqda.

Tashkilotning Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan 13-sammiti ham ana shu hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va istiqbolli tashabbuslar uchun yangi imkoniyatlarni belgilash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sammitda qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, yurtimizda xorijlik yoshlar uchun ta’sis etilgan “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” doirasida turkiy davlatlar vakillariga har yili ta’lim grantlari ajratilishi bildirildi. Barcha turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan va tillarimizdagi mushtarak so‘zlarni jamlaydigan umumturkiy so‘zlar lug‘atini yaratish taklifini berdi. Bunda, albatta, oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta’limni modernizatsiyalash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu yo‘nalishdagi tashabbuslardan biri Turkiy davlatlar xalqaro universiteti tashkil etilishidir. Prezidentimizning 2025-yil 24-yanvardagi qaroriga muvofiq Toshkent shahrida tashkil etilgan mazkur universitet turkiy davlatlar o‘rtasida oliy ta’lim, fan, innovatsiyalar va texnologiyalar sohasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Universitet xalqaro ta’lim standartlari asosida zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, shuningdek, qo‘shma akademik va ilmiy tadqiqot loyihalarini rivojlantirishni asosiy maqsadlari sifatida belgilagan. U turkiy davlatlarning ilmiy va intellektual salohiyatini birlashtirish, ta’lim tizimlari o‘rtasida amaliy aloqalarni mustahkamlash va xalqaro tajribani milliy ta’lim muhitiga olib kirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xo‘sh, bu maqsad yo‘lida qanday ishlar qilinmoqda? Avvalo, ta’lim dasturlari hamkor universitetlarniki bilan muvofiqlashtirilyapti. Shuningdek, xorijiy professor-o‘qituvchilarni o‘quv jarayoniga jalb etish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil qilish va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini xalqaro hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa universitetni oddiy bilim berish maskanidan ta’lim, tadqiqot va ishlab chiqarishni o‘zaro bog‘lovchi zamonaviy akademik muhitga aylantirishga xizmat qilayotir.

Turkiy davlatlar xalqaro universiteti faoliyatida Turkiya, Ozarbayjon va Qozog‘istonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Jumladan, 2025/2026-o‘quv yilida Turkiya universitetlari bilan hamkorlik asosida beshta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

2026/2027-o‘quv yilida hamkorlik geografiyasi Ozarbayjon va Qozog‘iston universitetlari bilan yangi yo‘nalishlar hisobiga kengaytirilmoqda. Neft va gaz ishi, kimyo muhandisligi, geologiya-qidiruv ishlari texnikasi va texnologiyasi, telekommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro va qiyosiy huquqshunoslik yo‘nalishlarida yana beshta dasturni joriy etish belgilangan.

Bu borada Ozarbayjon davlat neft va sanoat universiteti, Ozarbayjon texnika universiteti hamda Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti bilan hamkorlik qilinmoqda. Ikki o‘quv yiliga mo‘ljallangan hamkorlik dasturlari doirasida o‘nta ta’lim yo‘nalishini qamrab olish ko‘zda tutilgan. Bu esa universitetning turli mamlakatlar tajribasini bir akademik muhitda uyg‘unlashtirishga intilayotganini ko‘rsatadi.

Xalqaro hamkorlik samarasi, eng avvalo, uning ta’lim jarayonida qanday aks etishi bilan o‘lchanadi. Buning uchun malakali pedagoglar, zamonaviy o‘quv dasturlari, ilmiy laboratoriyalar va talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan infratuzilma zarur.

Turkiy davlatlar xalqaro universitetida ushbu yo‘nalishlarda amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, 2026-yil mart oyida tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun klinik simulyatsiya va amaliy ko‘nikmalar markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hajettepe universiteti o‘quv dasturlari va klinik standartlari asosida jihozlangan markazda talabalar shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, dastlabki tashxis qo‘yish va davolash algoritmlarini zamonaviy trenajyorlar hamda robotlashtirilgan moslamalar yordamida mashq qilish imkoniga ega.

Akademik mobillik turkiy davlatlar o‘rtasida oliy ta’lim integratsiyasini chuqurlashtirishda alohida o‘rin tutadi. Talabalarning boshqa mamlakatda muayyan muddat tahsil olishi, professor-o‘qituvchilarning ma’ruzalar o‘qishi, tadqiqotchilarning qo‘shma loyihalarda ishtirok etishi bilim va tajriba almashinuvini kuchaytiradi.

Akademik mobillik samarali bo‘lishi uchun o‘zaro tan olinadigan o‘quv natijalari, muvofiqlashtirilgan ta’lim dasturlari, shaffof baholash mezonlari va talabalar uchun tushunarli ma’muriy tartiblar zarur. Bunday mexanizmlar ta’lim oluvchilarning bir mamlakatda egallagan bilimlarini boshqa mamlakatda davom ettirishiga qulaylik yaratadi.

Shu ma’noda, turkiy davlatlar doirasida akademik mobillik dasturlarini rivojlantirish, grant va stipendiya imkoniyatlarini kengaytirish, qo‘shma diplom dasturlarini ko‘paytirish istiqbolli vazifalardandir.

Qo‘shma diplom dasturlari talabalarga ikki mamlakatning akademik tajribasidan foydalanish imkonini beradi. Biroq bunday dasturlar muvaffaqiyati ta’lim mazmuni muvofiqligi, sifat nazorati va bitiruvchilar malakasi tan olinishi kabi masalalar puxta hal etilishiga bog‘liq.

Yana bir muhim yo‘nalish yosh olimlar va startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashdir. Turli mamlakatlardan kelgan talabalar va tadqiqotchilarni birlashtiruvchi ilmiy tanlovlar, innovatsion loyihalar va startap akseleratorlar yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga, amaliyotga tatbiq etilishiga yordam beradi.

Bugun turkiy davlatlar oldida katta imkoniyatlar bilan birga jiddiy vazifalar ham turibdi. Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar, texnologik raqobat, ekologik muammolar va mehnat bozorining yangi talablari ta’lim tizimidan doimiy yangilanishni taqozo qilmoqda.

Bunday sharoitda davlatlarimizning eng katta boyligi — inson kapitali. Yoshlarning sifatli ta’lim olishi, zamonaviy kasblarni egallashi, mustaqil fikrlashi va yangi g‘oyalar yarata olishi mamlakatlarimiz kelajagini belgilaydi.

Shuning uchun oliy ta’lim sohasidagi hamkorlikka faqat bugungi kadrlarga ehtiyojni qondirish vositasi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. U uzoq muddatli taraqqiyot, ilmiy salohiyatni oshirish va kelajak avlod uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan strategik yo‘nalishdir.

TDT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali universitetlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, qo‘shma tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish va yoshlarimizning xalqaro akademik muhitda o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish mumkin.

Turkiy davlatlar xalqaro universitetining faoliyati ham ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni izchil rivojlantirish turkiy davlatlarning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga hissa qo‘shadi. Bu esa nafaqat universitetlarimiz, balki butun mintaqaning innovatsion taraqqiyoti, iqtisodiy raqobatbardoshligi va barqaror kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kelajak loyihalari



“LOLA-AI”

xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlovchi platforma

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va zamonaviy mehnat bozorida munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashish bugun har qachongidan muhim. Shu ma’noda, ularning oliy ma’lumot olishi, kasb-hunarli bo‘lishiga katta imkoniyatlar yaratilyapti. Ayni paytda sun’iy intellekt, dasturlash, raqamli dizayn va onlayn tadbirkorlik kabi yo‘nalishlar uyda o‘tirgan ayol-qizlarning ham daromad topishida qo‘l kelyapti.

Namanganlik dasturchi qizlar tomonidan ishlab chiqilgan “Lola-AI” platformasi ham shunday maqsadga qaratilgan. Platforma yordamida ayol-qizlar o‘z qiziqishi va imkoniyatiga mos kasbni tanlash, sun’iy intellekt yordamida individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish hamda malakali ustozlardan maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Loyihada ta’lim jarayonini amaliyot va bandlik bilan bog‘lashga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, o‘qishni tamomlagan qizlarni ishga joylashtirish, masofaviy mehnat va frilanserlikka yo‘naltirish, shuningdek, o‘z biznesini boshlash istagidagi xotin-qizlarga startap loyihalarini amalga oshirishda ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, platforma doirasida xotin-qizlarga psixologik ko‘mak berish, o‘ziga ishonchini mustahkamlash va turli hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga yordam berish ham rejalashtirilgan.

Platforma viloyat bo‘ylab tuman hokimlarining sun’iy intellekt bo‘yicha maslahatchilari jamoasi tomonidan takomillashtirilmoqda. Platforma yurituvchisi Maftuna Sheraliyeva, AT va ta’lim yo‘nalishiga mas’ul Nodira Arslonova, xorijiy tillar va yangi kurslarni o‘rganish hamda joriy etish bo‘yicha yetakchi Mohinur Mahmudova bilan suhbatda loyihaga turtki bo‘lgan omillar haqida so‘radik. Suhbatdoshlarimiz bugun sun’iy intellekt, dasturlash, raqamli dizayn va onlayn tadbirkorlik eng talabgir yo‘nalishlarga aylangani, bu sohalarda masofa ham, chegara ham to‘siq emasligini ta’kidladi. Biroq chekka tuman va mahallalarda yashovchi ayol-qizlar uchun bu yo‘lga birinchi qadam qo‘yish hali ham murakkab. Yaqin atrofda zamonaviy kurslar yetarli emas, yo‘l ko‘rsatadigan ustoz, o‘ziga ishonch ham yetishmaydi. Shu ma’noda, har bir qizning o‘z uyida turib zamonaviy kasb egallashi mumkin bo‘lgan tizim yaratishga qaror qilindi.

“Lola-AI” oddiy onlayn kurslar to‘plami emas. Bu kasb-hunarga o‘qitishning yangicha tizimi bo‘lib, unda o‘qish, amaliyot va ish yaxlit zanjirda birlashtirilgan. Sun’iy intellekt AT, dizayn, tadbirkorlik, marketing va hunarmandchilik bo‘yicha kurslar orasidan har bir qizning qiziqishi va imkoniyatiga mos o‘quv yo‘l xaritasini tuzib beradi. Shuningdek, tinglovchilarning savollariga javob qaytaradi va o‘qish davomida hamrohlik qiladi. Tajribali mutaxassislar maslahat va amaliy topshiriqlar berib boradi. O‘qishni tamomlaganlarga ish topishda ko‘maklashiladi. O‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lganlarga esa startap loyihalarida yordam beriladi.

“Lola-AI” xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘ziga xos Namangan tajribasi bo‘ldi. Platforma 16 yoshdan kattalar uchun mo‘ljallangan. Yaqin orada platformadagi kurslar sonini ko‘paytirish, xorijiy tillar bo‘yicha yo‘nalishlar va yana yangi zamonaviy kasblar bo‘yicha kurslarni joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, ish beruvchilar, AT kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, qizlar uchun ish va frilans buyurtmalari bazasini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Platforma bo‘yicha o‘qigan qizlarning o‘zi ham keyinchalik ustoz sifatida boshqalarga yordam beradigan hamjamiyat yaratadi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

BIRDAMLIK TAYANCHI – BILIMLI AVLOD

Anqara sammitida ilgari surilgan tashabbuslar ta’lim, yoshlar va amaliy hamkorlik oldiga qanday vazifalar qo‘ymoqda?

Nuqtayi nazar



Erkin AYDAROV,
M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti Chirchiq shahridagi filiali direktorining birinchi o‘rinbosari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Talaba xorijiy tengdoshi bilan bir laboratoriyada muammo yechsa, hamkorlikning ma’nosini bevosita anglaydi. U boshqa mamlakatni xaritadagi hudud sifatida emas, fikr almashish, bilim olish va birga izlanish mumkin bo‘lgan yaqin makon sifatida taniydi. Davlatlar o‘rtasidagi ishonchning uzoq umr ko‘rishi ham ana shunday insoniy aloqalarga bog‘liq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkilotining Anqarada bo‘lib o‘tgan sammitidagi nutqini o‘qir ekanman, aynan shu fikrga qaytdim. “Turkiy asr: tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostidagi uchrashuvda siyosiy muloqot, sanoat, transport, turizm, huquqiy hamkorlik va ta’limga daxldor takliflar ilgari surildi. Ularni birlashtiradigan mazmun shuki, tarixiy yaqinlik odamlarning bugungi hayotida seziladigan imkoniyatlarga aylanishi kerak.

Davlatimiz rahbari texnologik taraqqiyot poydevorini inson kapitali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega yosh avlod bilan bog‘ladi. Pedagog sifatida bu yondashuvni sammit kun tartibining eng uzoq istiqbolga xizmat qiladigan jihatlaridan biri deb bilaman. Sanoat loyihasi uchun uskuna va mablag‘ zarur. Ammo uni boshqaradigan muhandis, yangilik yarata oladigan tadqiqotchi, o‘z ishiga mas’ul mutaxassis bo‘lmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin.

Nutqda “Yangi O‘zbekiston stipendiyasi” doirasida xorijlik 500 talabaga grant asosida ta’lim olish imkoniyati yaratilgani qayd etildi. Shu bilan birga, turkiy davlatlar vakillariga har yili 200 ta ta’lim granti ajratishga tayyorlik bildirildi. Bunday imkoniyat yoshlarning ilmiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlash bilan birga universitetlar o‘rtasida uzoq muddatli aloqalar shakllanishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Ta’lim grantining qadri har bir yoshning o‘qishga qabul qilinishi bilan cheklanmaydi. Talabaning boshqa muhitga moslashuvi, ta’lim tilini o‘zlashtirishi, ilmiy rahbar topishi va o‘rgangan bilimini amaliyotda sinashi ham muhim. Shu sababli grantlar haqidagi axborotni yoshlarga aniq yetkazish, tanlov talablari tushunarli bo‘lishini ta’minlash, kelgan talabaga akademik va tashkiliy ko‘mak berish ustida ishlash zarur. Bunda adolatli tanlov hamkorlikka ishonchni mustahkamlaydi.

Menimcha, oliy ta’lim muassasalari bu tashabbuslarga faqat yangi kelishuvlar soni nuqtai nazaridan qaramasligi lozim. Hamkor universitetlar qaysi muammoni birgalikda o‘rganadi? Talaba almashinuvidan qaytgan yosh qanday ko‘nikma orttiradi? Uning o‘qigan fanlari qanday tan olinadi? Ana shu savollarga oldindan javob topish kelishuvning kundalik ishiga aylanishiga yordam beradi. Qisqa ilmiy seminar ham puxta tayyorlansa, mazmunsiz katta tadbirdan ko‘ra foydaliroq bo‘lishi mumkin.

Prezidentimiz taklif etgan “Turkiy dunyo — 100” dasturida yuzta strategik qo‘shma investitsiya va sanoat loyihasini qamrab olishi ko‘zda tutilmoqda. Nodir va strategik minerallarni to‘liq qayta ishlash, “yashil” energetika uskunalarini mahalliylashtirish, yuqori daromadli mahsulotlar tayyorlash ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatildi. Bular hali bajarilgan ishlar ro‘yxati emas, birgalikdagi faoliyat uchun ilgari surilgan vazifalardir.

Ushbu yo‘nalishlarning ta’limga aloqasi bevosita. Masalan, energiya tejamkorligi bo‘yicha qo‘shma loyiha talabaning hisob-kitobini, muhandisning tajribasini va korxonaning amaliy ehtiyojini bir masala atrofida birlashtirishi mumkin. Universitetlar sanoatdagi ehtiyojlarni o‘rganib, talabalarning bitiruv ishlari va tadqiqot mavzularini real muammolarga yaqinlashtirsa, hamkorlikning bilimga tayangan qatlami shakllanadi. Bunda ilmiy halollik va natijani tekshirish mezonlari chetda qolmasligi kerak.

Nutqda O‘rta yo‘lak va unga tutash transport yo‘laklarini yaxlit iqtisodiy tizimga aylantirish, turkiy davlatlar logistika komplekslari tarmog‘ini tashkil etish taklif qilindi. Logistika faqat yukni bir manzildan boshqasiga yetkazishdan iborat emas. Bu sohada raqamli boshqaruv, tillarni bilish, huquqiy savodxonlik va turli jamoalar bilan ishlash ko‘nikmalari bir-birini to‘ldiradi. Demak, iqtisodiy yaqinlashuv mutaxassis tayyorlashning mazmunini ham boyitishi kerak.

Umumturkiy so‘zlar lug‘atini yaratish tashabbusi esa madaniy yaqinlikni bilim orqali mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Mushtarak so‘zlarni bilish suhbatni osonlashtiradi, adabiy asarni tushunishga qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga, har bir tilning o‘ziga xosligini asrash, ma’no va talaffuzdagi farqlarni ilmiy aniqlik bilan yoritish zarur. Talabalar ishtirokidagi tarjima mashg‘ulotlari, lug‘at muhokamalari va birgalikdagi mutolaa uchrashuvlari bu yo‘nalishdagi foydali ish shakllari bo‘la oladi.

Yoshlar bilan ishlashda umumiy merosga hurmat boshqa xalqning qadriyatini kamsitishga aylanmasligi kerak. Qardoshlikning tarbiyaviy kuchi ochiq muloqotda, bir-birini tinglashda, turli qarashlarga odob bilan munosabat ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Talaba o‘z tilini va tarixini chuqur bilib, ayni paytda boshqa madaniyatni o‘rganishga tayyor bo‘lsa, xalqaro hamkorlik uchun ham puxta tayyorgarlik ko‘radi.

Albatta, tashabbuslarning amaliy samarasini vaqt va izchil mehnat belgilaydi. Oliy ta’lim tizimining vazifasi shu mehnatga tayyor yoshni, ya’ni bilimini tekshira oladigan, va’dasiga mas’ul, birgalikda ishlashni biladigan mutaxassisni tarbiyalashdir. Har bir hamkorlik loyihasida yoshlar uchun qanday o‘rganish imkoniyati borligini so‘rash odatga aylansa, sammit g‘oyalari auditoriyadagi dars mazmuniga ham kirib boradi.

Anqarada ilgari surilgan takliflar turkiy birdamlikni iqtisodiy imkoniyat, madaniy muloqot va inson kapitali bilan birga ko‘rishga undaydi. Biz, pedagoglar bu jarayonga, eng avvalo, kundalik ishimiz orqali hissa qo‘sha olamiz. Talabaga puxta bilim berish, mustaqil fikrini qo‘llab-quvvatlash, uni hamkorlik madaniyatiga o‘rgatish bugungi vazifamizdir.

Yaponiya tajribasini o‘rganish o‘zbek tarbiyasidan voz kechish degani emas. Aksincha, biz asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizni yanada mustahkamlashning samarali usullarini izlashimiz kerak.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 3-noyabr, 227-son

Mulohaza

Biz, katta avlod vakillari farzand tarbiyasi haqida gap ketganda, ko‘pincha bolaligimizni eslaymiz. Ota-onamiz bir ish buyursa, uni bajarishga harakat qilardik. Hovli supurish, ko‘chaga suv sepish, keksalar holidan xabar olish, hasharda qatnashish odatiy ishlar edi. Buning uchun alohida dars o‘tilmasdi. Hayotning o‘zi bizga saboq berardi.



Ikromxon NAJMIDDINOV,
“Nuroniy” jamg‘armasi
Namangan viloyati
bo‘limi raisi,
Oliy Majlis Senati a’zosi



YOSHLARNING ERTANGI QIYOFASI BUGUNGI TARBIYAMIZGA BOG‘LIQ

Namangan viloyatida Yaponiyaning ilg‘or tajribasi milliy qadriyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirilmoqda

Bugun zamon o‘zgardi. Bolalarimiz dunyodagi eng yangi bilimlarni egallayapti, axborot texnologiyalaridan foydalanyapti, xorijiy tillarni o‘rganyapti. Bundan, albatta, quvonamiz. Lekin bir aksioma bor: farzandimiz qanchalik bilimli bo‘lmasin, agar mehnatning qadrini bilmasa, katta-kichikka hurmat ko‘rsatmasa, ishiga mas’uliyat bilan yondashmasa, uning bilimi jamiyatga naf keltirmaydi.

Shu masala har bir ota-onani, har bir ustozni, ayniqsa, biz — nuroniylarni o‘ylantirishi kerak.

Yaqinda “Yapon tarbiyasi sirlari” kitobini mutolaa qilar ekanman, Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyoti haqida yana bir bor o‘yga toldim.

Urushdan keyin bu mamlakatning ko‘plab shaharlari vayron bo‘lgan, iqtisodiyoti og‘ir ahvolga tushgan edi. Ammo yapon xalqi katta mashaqqatlar evaziga yurtini qayta tikladi, sanoat va texnologiyada ulkan natijalarga erishdi.

Albatta, Yaponiya taraqqiyotini faqat tarbiya yoki intizom bilan izohlab bo‘lmaydi. Bunda oqilona iqtisodiy siyosat, ilm-fan, texnologiya, boshqaruv va xalqaro hamkorlikning ham o‘rni katta.

Lekin bir haqiqatni inkor etib bo‘lmaydi: har qanday taraqqiyotning markazida inson turadi.

Ishga o‘z vaqtida kelish, zimmasiga olgan vazifani puxta bajarish, jamoa manfaatini o‘ylash, boshqalar mehnatini hurmat qilish, umumiy mulkka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish — bularning barchasi jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

Bunday fazilatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ular bolalikdan, oila va maktabda, kundalik hayotda shakllanadi.

Yaponiya tajribasining men uchun eng e’tiborli tomoni ham shunda.

Yapon maktablarida bolaga tartib-intizom haqida faqat gapirib berilmaydi. U tartibli yashashga o‘rgatiladi. Mehnatning ahamiyati tushuntirilish bilan birga, bolaning o‘zi ham yoshiga mos mehnat jarayoniga jalb etiladi. Jamoaviylik haqida ma’ruza qilish bilan cheklanilmaydi, o‘quvchilar birgalikda ishlash, bir-birini tinglash va kelishib qaror qabul qilishga odatlantiriladi.

Bu yerda tarbiya so‘zdan amalga ko‘chadi.

Yaponiya tajribasini o‘rganish o‘zbek tarbiyasidan voz kechish degani emas. Aksincha, biz asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizni yanada mustahkamlashning samarali usullarini izlashimiz kerak.

Axir mehnatsevarlik bizga begona emas-ku!

Kattaga hurmat, kichikka izzat, qo‘ni-qo‘shniga yordam berish, hashar qilish, dasturxon odobi, ustozga ehtirom ko‘rsatish xalqimizning azaliy fazilatlari. Bobolarimiz “Mehnatning tagi — rohat”, “Odob — oltindan qimmat”, deb bejiz aytmagan.

Farq shundaki, biz ba’zan shu qadriyatlarni farzandlarimizga nasihat orqali yetkazishga ko‘proq harakat qilamiz. Yapon tajribasi esa ularni har kuni takrorlanadigan amaliy mashg‘ulotga aylantirish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Masalan, bolaga “Ozoda bo‘l”, deyish mumkin. Lekin unga o‘z o‘quv joyini tartibga keltirishni o‘rgatish yanada ta’sirliroq.

“Bir-biringizga yordam bering”, deyish mumkin. Ammo o‘quvchilarga birgalikda bajariladigan vazifa topshirilsa, ular hamkorlikning qadrini tabiiy his qiladi.

“Mas’uliyatli bo‘l”, deb nasihat qilish mumkin. Biroq bolaga muayyan vazifani ishonib topshirib, uning natijasiga o‘zi javobgar bo‘lishini o‘rgatish butunlay boshqa samara beradi.

Demak, biz uchun eng to‘g‘ri yo‘l xorij tajribasini ko‘chirish emas, uni milliy hayotimizga moslashtirishdir.

Shunday yondashuvlar bugun Namangan viloyatidagi ta’lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etilmoqda. Viloyatda Yaponiyaning ilg‘or ta’lim-tarbiya usullarini o‘rganish va milliy sharoitimizga moslashtirish maqsadida 17 ta umumta’lim maktabi hamda 18 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti — jami 35 ta muassasa tajriba-sinov maydoni sifatida tanlangan. Ularda 4,5 mingdan ortiq bola qamrab olingan.

2025/2026-o‘quv yilida tajriba-sinov maktablarining boshlang‘ich sinflarida 85 ta sinfdagi 2594 o‘quvchi bilan tegishli ishlar olib borilgan.

Bu raqamlarning ortida katta maqsad turibdi. Gap faqat yangi dars usulini sinab ko‘rish haqida emas. Asosiy niyat — bolalarning kundalik xulq-atvorida ijobiy odatlarni shakllantirish.

Mazkur ishlarga yaponiyalik mutaxassis Goto Mikako ham jalb etilgan. U ta’lim muassasalaridagi amaliy mashg‘ulotlarni kuzatish, pedagoglarga tavsiyalar berish va tajriba almashish jarayonlarida ishtirok etmoqda.

Ushbu tashabbus doirasida viloyatimizdan 24 pedagog Yaponiyada tajriba almashib, u yerdagi ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan bevosita tanishdi. Ular orttirgan bilim va ko‘nikmalarini mahalliy ustozlar bilan o‘rtoqlashmoqda.



Yaqinda Norin tumanidagi 41-umumta’lim maktabida bo‘lib, Yaponiya tajribasi joriy etilgan sinfga kirdim. Bolalarning tartib-intizomi, odob-axloqi, o‘zini tutishi va bir-biriga hurmatini ko‘rib, juda quvondim.

Yosh bolalarda shunday yaxshi fazilatlar shakllanayotganini ko‘rish biz, kattalar uchun faxr-iftixor, katta baxt. O‘sha yerda bir narsani yanada chuqurroq his qildim: tarbiyaning natijasi balandparvoz gaplarda emas, bolaning kundalik yurish-turishi, muomalasi va odobida ko‘rinadi. Maktabdan yaxshi kayfiyat, ertangi avlodimizga yanada katta ishonch bilan qaytdim.

Biz yapon metodikasidan foydalanib, o‘zbek farzandini milliy qadriyatlarga sodiq, dunyoqarashi keng, bilimli, mehnatsevar, mustaqil fikrlaydigan va mas’uliyatli inson qilib voyaga yetkazishimiz kerak.

Viloyatda yapon tajribasini milliy ta’lim muhitiga moslashtirishga qaratilgan metodik qo‘llanma ham tayyorlangan. Bu ishlar tajribani faqat ayrim maktablar doirasida qoldirmasdan, ilg‘or jihatlarini bosqichma-bosqich ommalashtirish uchun muhim asos bo‘ladi. Chunki yaxshi g‘oyaning o‘zi yetarli emas. Uni bola qalbiga yetkazadigan, hayotga tatbiq etadigan inson — ustoz. Ustoz yangi yondashuvning mazmunini chuqur anglamasa, eng yaxshi dastur ham qog‘ozda qolib ketishi mumkin.

Yaponiya ta’lim tizimida “Tokkatsu” deb ataladigan o‘ziga xos tarbiyaviy yondashuv mavjud. U maktab hayotidagi jamoaviy faoliyatlar orqali bolalarda mustaqillik, mas’uliyat, hamkorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Buning mazmunini oddiy bir misol bilan tushuntirish mumkin.

Aytaylik, sinfda o‘quvchilarga umumiy vazifa berildi. Kimdir kitoblarni tartibga keltiradi, boshqasi o‘quv jihozlarini joylashtiradi, yana biri sinfdoshlariga yordam beradi.

Bunda maqsad bolalarni shunchaki ishlatish emas. Maqsad — har bir bolaga jamoaning bir a’zosi ekanini, umumiy ishda uning ham hissasi borligini anglatish.

Yoki sinfda biror masala yuzasidan o‘quvchilarning fikri so‘raldi deylik. Biri o‘z taklifini aytadi, ikkinchisi uni tinglaydi, uchinchisi boshqacha fikr bildiradi. Oxirida ular o‘zaro kelishib qaror qabul qiladi.

Mana shu oddiy jarayonda bola sabrni, o‘zgalarni hurmat qilishni, fikrini asoslashni va kelishuvga erishishni o‘rganadi. Bu fazilatlar ertaga uning oiladagi, mehnat jamoasidagi va jamiyatdagi munosabatlarida ham asqatadi.

Namangandagi tajriba-sinov ishlarida ham sinf navbatchiligi, umumiy jihozlarni asrash, ozodalikni saqlash, vazifalarni taqsimlash, jamoada ishlash va bajarilgan ishlardan xulosa chiqarish kabi amaliy usullarga e’tibor qaratilmoqda. Menimcha, bu ishlarning qadri ham aynan shunda: bola tarbiya haqida eshitibgina qolmay, uni har kuni o‘z hayotida his etadi.

Namanganda boshlangan ishlar faqat dastlabki 35 ta ta’lim muassasasi bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. 2026/2027-o‘quv yilida yapon tajribasiga asoslangan tarbiyaviy yondashuvlarni 325 ta umumta’lim maktabida qo‘llash, jami 40 ming 984 o‘quvchini qamrab olish rejalashtirilgan.

Bu, albatta, katta ko‘lam.

Lekin men bir narsani alohida ta’kidlagan bo‘lardim: tarbiya sohasida faqat raqamning o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi.

Biz uchun eng muhimi quyidagi yana bir necha savolga javob topish.

Bola avvalgiga nisbatan mas’uliyatliroq bo‘ldimi? O‘z ishini mustaqil bajarishga o‘rgandimi? Sinfdoshiga yordam beryaptimi? Umumiy mulkni asrayaptimi? Xatosini tan olib, uni tuzatishga harakat qilyaptimi? Mana shu savollarga javob topsak, ishning haqiqiy samarasini ko‘ra olamiz.

Shu sababli tajriba-sinov muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarni kuzatish, pedagoglarga metodik yordam berish va o‘quvchilarning kundalik faoliyatidagi o‘zgarishlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir maktabda o‘quvchilarning mustaqilligi oshsa, boshqasida jamoaviylik mustahkamlansa, yana birida bolalarning mehnatga munosabati o‘zgarsa, bularning har biri e’tiborga loyiq natijadir. Muhimi, tarbiya bolaga bosim o‘tkazish vositasi bo‘lmasin, uning yaxshi fazilatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilsin.

Bugungi tarbiya masalasida gapirar ekanmiz, nuroniylarning o‘rni haqida alohida to‘xtalishni istayman.

Nuroniy — faqat yoshi ulug‘ inson emas. U hayot tajribasiga ega, ko‘pni ko‘rgan, yaxshilik bilan yomonlikning farqini anglagan, o‘z so‘zi va shaxsiy namunasi bilan yoshlarga ta’sir ko‘rsata oladigan inson. Xalqimizda “Qarisi bor uyning parisi bor” degan gap bejiz aytilmagan.

Har bir mahallada katta hayotiy tajribaga ega ustozlar, mehnat faxriylari, ziyolilar, hunarmandlar, o‘z kasbining mohir ustalari yashaydi. Nega ularning tajribasidan farzandlarimiz tarbiyasida kengroq foydalanmasligimiz kerak?

Bir nuroniy maktabga borib, bolalarga mehnatning qadri haqida suhbat qilib bersa, yana biri o‘z kasbi va hayot yo‘li haqida gapirsa, boshqasi yoshlarga hunar o‘rgatsa, ishonchim komilki, buning ta’siri katta bo‘ladi. Ayniqsa, nuroniylar va o‘quvchilarning birgalikda ko‘chat ekishi, mahalla obodonchiligida ishtirok etishi, keksalar holidan xabar olishi, kitob mutolaasi va milliy an’analar haqida suhbatlar o‘tkazishi tarbiyaning jonli maktabiga aylanishi mumkin.

Bunday ishlarda bola faqat tinglovchi bo‘lib qolmaydi. U kattalar bilan yelkama-yelka turib, yaxshilik qilishning zavqini his etadi. Shu ma’noda, Yaponiya tajribasi bilan o‘zbek xalqining mahalla va ustoz-shogird an’analarini uyg‘unlashtirish uchun katta imkoniyatlar bor.

Har bir mahalladagi hayot tajribasiga boy keksalarimiz o‘z hududidagi maktablar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatsa, o‘quvchilar bilan muntazam uchrashib, ularga mehnat, odob, halollik va insoniylik haqida hayotiy misollar asosida saboq bersa, qanday yaxshi bo‘lardi. Bunda quruq nasihatdan ko‘ra, bolalar bilan birgalikda qilingan bitta xayrli ish ko‘proq samara berishi mumkin. Zero, tarbiyada eng kuchli ta’sir shaxsiy namunadir.

Yana bir haqiqat bor: maktabda boshlangan yaxshi odat oilada davom etmasa, uni mustahkamlash qiyin. O‘quvchi maktabda o‘z buyumlarini tartibga solishga o‘rganib, uyda barcha ishni onasi bajarishini kutib o‘tirsa, tarbiyada uzilish paydo bo‘ladi.

Maktabda kattalarga hurmat haqida gapirib, uyda bolaning oldida bir-birimizga qo‘pol muomala qilsak, bergan nasihatimizning ta’siri kamayadi. Shuning uchun ota-ona ham farzandiga yoshiga mos mas’uliyat berishi kerak.

Bola o‘z xonasini yig‘ishtirsin, kitoblarini asrasin, dasturxonga yordam bersin, suvni isrof qilmasin, bobo-buvisining holidan xabar olsin. Bu ishlar bolani qiynash emas, aksincha, uni hayotga tayyorlashdir.

Bugun hamma narsasi muhayyo qilib berilgan bola ertaga mustaqil hayotda qiynalib qolmasligi uchun unga kichikligidan ishonch bildirishimiz zarur. Ayni paytda intizomni qo‘rqitish bilan, mehnatga o‘rgatishni esa bolaga og‘ir yuk ortish bilan adashtirmasligimiz lozim.

O‘g‘il-qizlarimiz nima uchun biror ishni bajarayotganini tushunsin. Uning fikri tinglansin, mehnati qadrlansin, xatosini tuzatishiga imkoniyat berilsin. Ana shunda mas’uliyat majburiyatdan odatga, odat esa insonning tabiatiga aylanadi.

Bugungi bolalar bizning avlodimizdan butunlay boshqa axborot muhitida ulg‘aymoqda. Ular telefon, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyo bilan muloqot qiladi. Buning yaxshi tomonlari ko‘p. Lekin bunday sharoitda odob, andisha va mas’uliyatning ahamiyati yanada ortadi.

Farzandimiz ko‘chada kattalarga hurmat ko‘rsatsa-yu, internetda boshqalarni haqorat qilsa, buni to‘g‘ri tarbiya deb bo‘lmaydi. U o‘zi eshitgan har qanday xabarni tekshirmasdan tarqatsa, boshqalarning sha’ni va shaxsiy hayotiga beparvo qarasa, demak, biz unga mas’uliyatning mazmunini to‘liq anglata olmaganmiz.

Shuning uchun tarbiya faqat sinfxona yoki oila davrasi bilan cheklanmasligi kerak. U bola hayotidagi barcha munosabatlarni qamrab olishi zarur. Yaxshi odobning o‘lchovi hamma joyda bir xil: inson boshqalarga hurmat bilan qarashi, o‘z so‘zi va harakati uchun javobgarlikni his qilishi kerak.

Ba’zan biz jamiyatdagi katta o‘zgarishlarni faqat yirik qurilishlar, yangi korxonalar, zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘laymiz. Albatta, bularning barchasi zarur. Lekin o‘sha binolarda ishlaydigan, texnologiyalarni boshqaradigan, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan inson qanday bo‘lishi kerak? U bilimli, halol, mehnatsevar, intizomli, mas’uliyatli, o‘zgalarga hurmatli bo‘lishi lozim.

Bunday insonni bir kunda tarbiyalab bo‘lmaydi. U bolaligidan o‘z vazifasini bajarishni, birovning mehnatini qadrlashni, va’dasida turishni, qiyinchilikdan qochmaslikni o‘rganib boradi. Namanganda Yaponiya tajribasi asosida boshlangan ishlarga men ana shu nuqtai nazardan qarayman.

Bu tashabbusning qimmati faqat xorijiy usullarni qo‘llayotganimizda emas. Eng muhimi, biz tarbiyaga yangicha nazar bilan qarayapmiz, uni kundalik hayotga yaqinlashtirishga intilyapmiz.

Albatta, hali o‘rganish, kuzatish, to‘g‘rilash va takomillashtirish kerak bo‘lgan jihatlar ko‘p. Har qanday yangi tajriba o‘z natijasini vaqt o‘tishi bilan ko‘rsatadi. Biroq yo‘nalish to‘g‘ri tanlansa, ustoz, ota-ona, mahalla va nuroniylar bir maqsad yo‘lida hamjihat bo‘lsa, bu harakat albatta samara beradi.

Men bir narsaga ishonaman: bolaning qo‘liga supurgi tutqazishdan ham muhimrog‘i unga umumiy joyni asrash mas’uliyatini anglatishdir. Biror vazifa berishdan ham muhimrog‘i o‘sha vazifani vijdonan bajarishga o‘rgatishdir. Odob haqida gapirishdan ham muhimrog‘i kattalarning o‘zlari unga namuna bo‘lishidir.

Biz yapon metodikasidan foydalanib, o‘zbek farzandini milliy qadriyatlarga sodiq, dunyoqarashi keng, bilimli, mehnatsevar, mustaqil fikrlaydigan va mas’uliyatli inson qilib voyaga yetkazishimiz kerak. Bunda dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, foydali tajribani o‘rganishdan cho‘chimasligimiz lozim. Zero, millatning ertangi qiyofasi bugun farzandlarimizga berayotgan tarbiyamizda aks etadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.